

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 15-avgust
№33 (3147)

ARMIAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz

UCHUVCHI HAQIDA SUHBAT

– Ona, anov yulduz boshqacha porlar,
Sayr etar samoning ma'sum ko'ksini.
Manov millionlagan yulduzzor aro,
Yo'qotib qo'yganmi biror do'stini?

Kimni qidirmoqda bunchalar dilgir,
Bulutlarga ketar goho turtinib.
Yoki boshqa yurtidan kelgan musofir,
Izlab yuribdimi ona yurtini?

– Bolam, uchayotgan yulduz emasdir,
U jangchi yigitning temir qanoti.
Olis osmonlarga qulochin yozib,
Xabar berayotir yurtning sabotin.

Na do'stin yo'qotgan, na-da musofir,
Ezgulikdan salom aytguvchilardir.
Osmon sarhadlarin yovlardan qo'rib,
Yurti asrayotgan uchuvchilardir.

Muhammadali G'AFFOROV,
“Vatanparvar”



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

Har yili istiqlol bayramiga bir necha oy qolganda, mamlakatimiz bo'ylab yuraklarga ilhom, ruhlarga kuch bag'ishlaydigan, mustaqilligimizning asl mazmun-mohiyatini mujassam etgan go'zal bir shior yangraydi. Biz ana shu shiordan ruhlanib, eng aziz va mukarram ayyom – mustaqillik bayramini intiqlik bilan kutamiz. Chuqur ma'no va sermazmun fikrga chorlaydigan bu shiorlar aslida faqat bayram ramzi emas, balki butun faoliyat yo'nalishimizga yo'l-yo'riq beradigan ma'naviy mezondir.

Mana, "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan shior ham har bir vatanparvarning qalbini jumbishga keltiradi. Bu so'zlar harbiylar uchun yangi bir ruhlanish, mashq maydonida har qadamga, har bir harakatga ma'no bag'ishlaydi. Ular qo'lidagi qurol bilan Vatan tinchligini asrash asnosida, ko'zlaridagi chaqnoqni el farovonligi uchun yo'naltirish – mana shu shiorning asosiy mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Kasbim taqozosiga ko'ra, harbiylar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boraman. Shu bois har bir yangi shiorning nechog'li ko'tarinki, inson qalbiga ta'sirchan bo'lishi meni hamisha quvontiradi. **Chunki harbiylar uchun shior – bu shunchaki so'zlar yig'indisi emas. U – burch va sadoqat qasami, mardlikka chorlov, Vatanga xizmat yo'lidagi yo'lchi yulduz sanaladi.**

Shiorda uch muqaddas va aziz tushunchaga urg'u berilgan. Bular – Vatan, millat va xalq. Xo'sh, biz bu jonga yaqin tushunchalarni nechog'li idrok etamiz, ularni qanday tushunamiz?

VATAN – kishining kindik qoni to'kilgan tuproq, ota-bobolari yashab o'tgan manzil. Shu bois inson o'z ajdodlarining xoki yotgan bu muqaddas zaminni hech qanday iddaolarsiz, ta'malarsiz yaxshi ko'radi. Boshimizga og'ir kunlar tushganda, qalbning bir chekkasida, albatta, Vatanning surati namoyon bo'ladi va bizga qat'iyat, bardosh, umrga mazmun baxsh etadi.

MILLAT – insonning kimligini, ruhi va qiyofasini belgilaydigan eng katta omil. Kishi qaysi millatga mansub bo'lmasin, u o'sha millatning taqdiri, sharafti va mas'uliyatiga sherikdir. Biz – qadimiy turkiy millatning bir tarmog'i, tarix silsilalarida o'z

UCH

BUYUK TUSHUNCHA



yo'lini topgan, dunyoga minglab buyuk siymolarni yetkazgan o'zbek xalqimiz. "O'zbek" nomi zikr etilganda, ko'z oldimizda Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi jahon ilm-fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz gavdalanadi. Ular bizning iftixorimiz, yoshlar uchun yo'l yorituvchi ma'naviy charog'imizdir.

Dunyoda qancha mamlakat bo'lsa, ularda istiqomat qiluvchi insonlar guruhi ham bor, u xalq deb ataladi.

XALQ so'zi arab tilida "yaratilgan" degan ma'noni beradi. Millatdan farqli o'laroq, xalq faqat bir tilda so'zlashuvchi insonlar guruhidan iborat emas, xalq tarkibida turli millat vakili bo'lishi mumkin. Masalan, Vatanimiz O'zbekistonda ham 130 dan ortiq millat vakili yashaydi, ular birlashib, O'zbekiston xalqini tashkil etadi. Xalq – bu shunchaki odamlar to'dasi, olomon emas. U ma'lum bir maqsad yo'lida birlashgan, ongli va tafakkurli, o'z istiqbol rejasiga ega bo'lgan insonlar jamiyati hisoblanadi. Xalq – dunyodagi eng qudratli kuch. Buyuk Cho'lpon aytganidek, "Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir!"

Xalqning qudrati cho'llarni bo'stonga aylantiradi, daryolar o'zanini o'zgartiradi, tog'larni joyidan siljitadi. Xalqqa bas keladigan kuch yo'qdir. Shuning uchun ham bobolarimiz bejiz aytmagan **"Xalq bir luqmadan bersa – to'ydiradi, bir mushtdan ursa – o'ldiradi"**. O'zbek xalqi ana shunday bemisl qudrat sohibi. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqimiz turli millatga mansub bo'lgan millionlab yetim bolalarni beminnat o'z bag'riga olganini, 45 kunda Katta Farg'ona kanalini bunyod etganini, minglab gektar cho'llarni o'zlashtirganini, tog'lar bag'rini tikkasiga yorib o'tib, Qamchiq dovoni yo'lini qurganini tarix hali unutgani yo'q. Ha, xalq bor joyda hayot, mehr va qudrat bor. Xalqning quvonchi – hammaning quvonchi, uning dardi – butun yurtning dardi. Biz bir-birimizdan

kuch olamiz, birgalikda yurt taqdirini belgilaymiz. Shuning uchun ham xalqning farovonligi – davlatning quvvati, uning birdamligi – yorug' kelajak kafolati sanaladi.

Bugun o'zbeklar birlashgan, maqsad yo'lida jipslashgan, Vatanning obodligi va xalqning farovonligi uchun bunyodkorona mehnat qilayotgan millat. Biz kelajakni qurishda nafaqat o'zbeklar, balki barcha turkiy xalqlar bilan yelkadosh bo'lib, tarixdan kuch, ajdodlar merosidan ilhom olamiz. Chunki **Vatan – yurak, millat – ruh, xalq – qudrat**. Va biz ana shu uch muqaddas ne'matni asrab-avaylab, kelajakka meros qilib qoldirishga burchlimiz.

BARCHAMIZNING MAQSADIMIZ BITTA: Vatanimiz tinch va osoyishta, millatimiz abadiy, xalqimiz farovon bo'lsin. Zero kishining Vatani tinch, ozod bo'lmasa, u o'z uyida xotirjam yasholmaydi. Millat parokandalikka yuz tutsa, o'z tilini, urf-odatlarini unuta boshlasa, bunday millatning kelajagi bo'lmaydi. Chunki millatni tinch qilib turadigan asosiy qadriyat uning tili va an'analaridir. Agar xalq farovon yashamasa, uning Vatan hamda millat singari buyuk tushunchalar bilan ishi bo'lmay, faqat o'z g'am-tashvishi bilan andarmon bo'lib qoladi. Shuning uchun so'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlarning aksariyati aholining turmush darajasini yaxshilashga, el-u yurtni obod qilishga qaratilmoqda. Va xalqimiz ham bu g'amxo'rlikka javoban Vatan ravnaqi yo'lida mehnat qilayotir.

TINCHLIK – barcha yutuq va yuksalishlar poydevori. Shu bois Vatanning tinchligi, chegaralar daxlsizligi va milliy xavfsizlik masalasi har doim birinchi o'rinda

turadi. Bu esa, avvalo, harbiylarimiz zimmasidagi muqaddas va sharaftli burchning nechog'li salmoqli ekanidan dalolat beradi.

Bugun O'zbekiston o'zining qudratli armiyasiga ega, u ilm-fanning so'nggi yutuqlari asosida yaratilgan zamonaviy aslahalar bilan qurollangan. Jasur harbiy xizmatchilarmiz Qurolli Kuchlar Bosh Qo'mondoni rahbarligida Vatan, millat va xalq uchun har lahzada hushyor turib, o'z zimmalaridagi mas'uliyatni sidqidildan ado etmoqda.

Biz harbiy qismlarda o'tkaziladigan tadbirlarda ko'p ishtirok etamiz. Har gal harbiylar bilan hamsuhbat bo'lganimizda ularning nigohlaridagi ishonch va qat'iyatni ko'rib, faxrga to'lamiz. **Bugungi o'zbek askari har jihatdan yetuk: jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, ruhan qat'iyatli inson!** Chunki u o'z tomirida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi daholar qoni oqayotganini teran tushunadi va ularga munosib bo'lish uchun harakat qiladi. Harbiylarimiz Vatan, millat va xalq tushunchalarini o'z qalblariga jo qila olganlari bilan ham biz uchun qadrlil va ardoqlidir.

"VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!" qanday hayotbaxsh va ko'ngilga yaqin shior! Unda el-yurtimizning shonli tarixiga ehtirom va buyuk kelajakka bo'lgan umid mujassam. Ana shu yuksak tushuncha mushtarakligidan paydo bo'ladigan pokiza bir istak O'zbekistonning nurli ertangi kuniga bo'lgan ishonchdir. Qalblarimizda shu ishonch bor ekan, O'zbekiston degan yurt ham to'ab gullab-yashnayveradi.

Feruza SAPAROVA,
Mudofaa vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi
Jizzax viloyati mintaqaviy
bo'linmasi mutaxassisi

Qaror va ijro

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasida harbiy xizmat o'tashni tashkil etish, uning huquqiy asoslarini belgilashga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada harbiy xizmat o'tashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar yillar davomida shakllanib, doimiy ravishda takomillashtirilib kelinmoqda.

HARBIY XIZMAT O'TASHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI



Ta'kidlash joizki, bugungi kunda yurtimizda harbiy xizmatni o'tashning huquqiy asoslari, harbiy xizmatni tashkil etish va uni o'tash bilan bog'liq munosabatlar bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solib kelinmoqda. Bunda asosiy qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning harbiy xizmatga oid asosiy majburiyatlarini belgilaydi. Jumladan, konstitutsiyaning 64-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish mamlakatimiz har bir fuqarosining burchi ekani, fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majbur ekani belgilangan.

Shu bilan birga 2001-yil 11-maydagi **“Mudofaa to'g'risida”gi qonunning** yangi tahririda davlatning mudofaasi va harbiy xizmatni tashkil etish asoslari belgilangan. Mazkur qonunning 17-moddasiga ko'ra, harbiy xizmat davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim bo'lib, uni o'tash har bir fuqaro uchun konstitutsiyaviy majburiyat sanalishi, shuningdek fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majbur ekani belgilangan.

Bundan tashqari, 2002-yil 12-dekabrda **“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi qonun** harbiy xizmat o'tashning asosiy me'yoriy hujjati bo'lib, fuqarolarning harbiy xizmatga chaqirilishi, harbiy xizmatni o'tash tartibi, safarbarlik va rezervchilar xizmatlari, shuningdek harbiy xizmatdan bo'shatish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrda **“O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida”gi qarori** O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibini belgilaydi. Ushbu qaror fuqarolar tomonidan davlatning hududiy yaxlitligi, mustaqilligi va xavfsizligini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlari amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Mazkur nizom fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tash nazarda tutilgan vazirliklar, qo'mitalar va idoralarda chaqiruv va kontrakt bo'yicha haqiqiy harbiy xizmatni o'tashi, Qurolli Kuchlar rezervi (*zaxirasi*)dagi fuqarolar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, harbiy xizmatni o'tashning shaffoqligi va har bir harbiy xizmatchining professional o'sish istiqbolini ta'minlaydi.

Ushbu nizomning 8-bandiga asosan, 4 ta asosiy harbiy xizmat turlari belgilangan. Bular:

muddatli harbiy xizmat;
safariylik chaqiruv rezervidagi harbiy xizmat;

kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmatidan iborat.

Muddatli harbiy xizmat: chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning qonunchilikda belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir. Muddatli harbiy xizmat muddati kalendar hisobida o'n ikki oy etib belgilanadi. Muddatli harbiy xizmatni o'tash tartibi qonunchilik bilan belgilangan.

Safariylik chaqiruv rezervidagi harbiy xizmat: harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo'lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safariylik chaqiruv rezervi safiga olinadi.

Safariylik chaqiruv rezervidagi xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus hisobvarag'iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Safariylik chaqiruv rezervidagi xizmat safiga shaxslar yigirma yetti yoshga to'lgunga qadar olinadi va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishi mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro'y bergan taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladi.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat: Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan, kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir. Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'taydi.

Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati: rezervchilar xizmati haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek safariylik chaqiruv rezervidagi xizmatni o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo'lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo'shimchalari, qismlari va bo'linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan

shtatlar darajasiga qadar to'ldirish, shuningdek urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Yuqorida keltirib o'tilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mantiqiy davomi sifatida, 2003-yil 25-apreldagi **“O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida”gi qonuni** qabul qilingan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar rezervidagi xizmatni o'tashi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu qonunga ko'ra, **rezervdagi xizmat** turi sifatida haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek safariylik chaqiruv rezervidagi xizmatni o'tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo'lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo'shimchalari, qismlari va bo'linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to'ldirish, shuningdek urush davrida taqozo etiladigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan fuqarolarning harbiy xizmati nazarda tutilgan.

Tahlillarga ko'ra, dunyoning ko'plab mamlakatlarida harbiy xizmatning tashkil etilishi va uning huquqiy asoslari turlicha bo'lib, ularning samarali tajribalarini amaliyotga joriy etish mamlakatimiz uchun manfaatli sanaladi.

Bu borada, **AQShda** harbiy xizmat asosan ixtiyoriy tarzda amalga oshirilib, majburiy chaqirish tizimi faqat zarur holatlarda qo'llaniladi. AQSh Kongressi tarafidan nazorat qilinuvchi “Selective Service System” tizimi mavjud bo'lib, unda 18-25 yoshdagi erkaklar ushbu tizimga ro'yxatga olinadi. Mazkur tizimning qulayligi sifatida, unda majburiy chaqirish holatlari kamligi

sababli asosan, ixtiyoriy xizmatga o'tish rag'batlantirilishi bilan izohlanadi.

Rossiya Federatsiyasida esa harbiy xizmat majburiy bo'lib, asosan 18-27 yoshdagilar xizmatga chaqirilib, bunda harbiy xizmat muddati 12 oyni tashkil etadi. Rossiya qonunchiligida tibbiy, ta'lim va boshqa turli ijtimoiy sabablarga ko'ra xizmatdan chetlatish holatlari belgilangan. Tizimning qulayligi tibbiy ko'rik orqali xizmatga yaroqli bo'lmaganlarni chetlashtirish hamda oliy o'quv yurtlari talabalari va ayrim kasb egalari vaqtinchalik chetlatishi ham mumkinligida o'z ifodasini topadi.

Germaniyada 2011-yildan keyin majburiy harbiy xizmat to'xtatilgani sababli harbiy xizmat ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi. Mamlakatda harbiy xizmatga chaqirish yoshi 17-23 yosh oralig'ini tashkil etib, fuqarolar o'zlari tug'ilgan joylarida xizmat qiladi. Ushbu tizimning qulayligi harbiy xizmatchilarga ta'lim olish va malaka oshirish uchun imtiyozlar berilishi hamda xizmatni o'tash muddati vaqti fuqarolar ixtiyoriga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Janubiy Koreyada esa harbiy xizmat majburiy bo'lib, 18-28 yosh oralig'idagi erkaklar xizmat qiladi. Xizmat muddati o'rtacha 18-24 oyni tashkil etib, mamlakat Koreya yarimoroli atrofidagi xavfsizlik tahdidlari sababli bu tizimni saqlab kelmoqda. Ushbu tizimning qulayligi sifatida harbiy xizmatni o'taganlarga soliqda imtiyozlar va davlat yordami ko'rsatiladi hamda ta'lim olishda xizmat vaqti e'tiborga olinadi. Shuningdek, chaqiriluvchiga xizmati davomida tibbiy yordam va ijtimoiy xizmat kafolatlari taqdim etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zaruriyati saqlanib qolmoqda. Xususan, harbiy xizmat o'tash tartibi bo'yicha qonunlar va me'yoriy hujjatlarning zamon talablariga moslashtirilishi, jumladan xalqaro standartlar va eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish lozim. Bundan tashqari, murakkab va ikki xil talqin qilinadigan tushunchalarni fuqarolar va harbiy xizmatchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida huquqiy normalarni soddalashtirish va noaniqliklarni bartaraf etish, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini oshirish hamda huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishida jamoatchilik, mutaxassislarning fikrlarini hisobga olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatning me'yoriy huquqiy asoslari mamlakatning xavfsizligini ta'minlash, mudofaasini mustahkamlash, fuqarolarning vazifalarini aniq belgilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda harbiy xizmat o'tash tizimini tashkillashtirishda ixtiyoriylikni ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa O'zbekistonning xavfsizligini barqaror ta'minlashga, yoshlarni harbiy xizmatga jalb etishni yanada samarali tashkil qilish hamda milliy armiyaning nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

**Podpolkovnik
Rustam ABDULLAYEV,
Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh
boshqarmasi
boshqarma boshlig'ining
o'rinbosari – bo'lim boshlig'i**

Havo floti kuni



SAMO SARHADLARIDAGI SARLOCHINLAR

Harbiy aviatsiya har bir mamlakat uchun juda muhim bo'g'in sanaladi. Jumladan, yurtimiz uchun ham. Xususan, vertolyot aviatsiyasi nafaqat mamlakat mudofaasi, balki qidiruv, qutqaruv ishlarida ham faol ishtirokchi.

2020-yilning may oyi boshida "Sardoba" suv omboridagi texnogen ofat oqibatlarini bartaraf etishda vertolyot aviatsiyasi kuchidan samarali foydalanilgani va uni tasvirga muhrlaganimiz kechagidek yodimda. Yaqinda Bo'stonliq tumanidagi tog'li hududda ro'y bergan yong'inlarni o'chirish tadbirlariga Mudofaa vazirligiga qarashli vertolyotlar jalb qilinib, yong'inni bartaraf etishda amaliy ko'mak berganini eshitgandirsiz. Bu faoliyat qirrasining kichik bir hayotiy jihati xolos. Fikrimizni mahalliy misollardan global makonga ko'chiramiz. Uchuvchisiz uchish apparatlari harbiy harakatlarning ajralmas qismiga aylanib, doimiy ravishda **yangi avlod dron texnologiyalari** paydo bo'layotganidan xabardorsiz. Bu esa sohada yuqori malakali operatorlar va dasturchilarga bo'lgan talabni tobora oshirib, uchuvchisiz uchish apparatlari mutaxassislarini tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Shu bois Prezidentimiz qarori asosida, Qurolli Kuchlarimizda yagona bo'lgan **Aviatsiya va uchuvchisiz uchish apparatlari mutaxassislarini tayyorlash markazi** tashkil etildi. Shu orqali Qurolli Kuchlar tizimida ilk bor o'quv va jangovar bo'linma tandemi yaratilib, endilikda ushbu markazda **aviatsiya, aviayo'naltiruvchi va uchuvchisiz uchish apparatlari operatori**

mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'lga qo'yildi. Bu esa mazkur yo'nalishda milliy tizim yaratilishiga erishilib, yiliga ko'plab dron va zamonaviy turdagi uchuvchisiz uchish apparatlari mutaxassislari tayyorlanadi deganidir.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari bugungi kunda zamon talablari asosida bilimlarni o'zlashtirgan professional kadrlar bilan butlangan. O'z navbatida, mintaqadagi murakkab harbiy-siyosiy vaziyat saqlanib qolayotgan hozirgi sharoitdan kelib chiqib, yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash tizimi uzviy va izchil davom ettirilmoqda.

Mamlakat qudratini va iqtisodiyotini mustahkamlashda, xalqaro va ichki qatnovni ta'minlashda Havo flotining muhim ahamiyatini e'tiborga olib, Harbiy havo kuchlari harbiy xizmatchilari va o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar tarkibining aviatsiyani, aviatsiya sanoatini rivojlantirishga hamda kadrlar tayyorlashga qo'shgan hissasini nazarda tutib, avgust oyining uchinchi yakshanbasi "O'zbekiston Respublikasining Havo floti kuni" etib belgilangan. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillar davomida Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari o'zining professional mahoratini muvaffaqiyatli yuksaltirdi.



Shaxsiy tarkib tomonidan yangi va zamonaviy zenit-raketa komplekslari, ko'p maqsadli vertolyotlar o'zlashtirildi. Aviaparvozlarda harbiy uchuvchilar osmonga ko'tarilish soni bilan bir qatorda sifatini, kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

... "Chirchiq" aerodromi.

Po'latqushlarning uchish va qo'nish maydoni. Bu maskanda osmon bilan yer tutashgandek. Bepoyon kenglikdagi har bir nuqta harbiy uchuvchilar uchun qadrli. Chunki unda tarix nafasi ufuradi. Qat'iyat, iroda, jasorat bilan bog'liq qiziqarli hikoyalar yodga tushadi. Maydonning o'zi esa keng, yurt posbonlari kabi nihoyatda tartibli. Har bir chiziq, har bir belgi aniqlik va intizomning yorqin timsoli. Bu aerodromning uchuvchilar bilan bir butun ekanini anglatadi.

Angarlar ichida o'nlab ot kuchiga ega temirqushlarni saqlaydi. Bu yerda

muhandislar va texnik xodimlar yuksak mahorat bilan vertolyotlarni parvozga tayyorlaydi. Ularning yuzida charchoq alomati emas, balki o'z kasbiga bo'lgan cheksiz mehr va mas'uliyat aks etadi.

Ijodiy guruhimiz bilan kallayi saharlab adirliklar uzra yastangan aerodromga yetib kelganimizda, bu yerdagi sukunatni dvigatellarning ovozi buzdi. Bu tovush parvozga shay turgan, yuragida kasbiga muhabbat alangalanib turgan uchuvchilarning qalb urishidek eshitaladi. Havoga ko'tarilgan vertolyotlar moviy osmonda uchib ketayotgan qushlar misoli samoda o'ziga xos iz qoldirib, bulutlar orasiga singib ketadi. Uzun uchish-qo'nish yo'laklari parvozga shaylangan hamda ko'kda uchib kelgan po'latqushlarga bag'rini ochadi. Ammo mana shu parvozgacha qanday mashg'ulot va jarayonlardan o'tish kerakligini hamma ham bilavermasligi tayin.





Muallif suratga olgan

MUHMIM VA MUSTAHKAM BO'G'IN



PARVOZOLDI JARAYONLAR

Uchuvchining ko'kda xavfsiz parvoz qilishi yerda doimiy oshirib boriladigan bilim va ko'nikma bilan uzviy bog'liq. Mediarejaga asosan, harbiy aviatsiya bo'linmalarining mashg'ulot jarayonlarini tasvirga olish uchun harbiy qismga borganimizda, bu yerga amaliyot o'tash uchun kelgan **O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti kursantlari** bilan dastlabki parvozga tayyorgarlik uchun o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan ekan. Bundan maqsad bo'lajak mutaxassislar kelgusida Harbiy havo kuchlari uchuvchisi sifatida vertolyot aviatsiyasi va havodagi harakatni boshqarish sir-sinoatlarini amaliyotda puxta egallagan, mukammal o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Ana shu sinov mashqlarini topshirish onlari yaqin va birmuncha hayajonli.

Chunki fazoda kichik bir xatoga ham yo'l qo'ymaslik uchun ham hozir vaqtdan unumli, maqsadli foydalanish, jonni jabborga berib bo'lsa-da, tanlagan kasbidagi navbatdagi chinakam irodasini namoyon etadigan fursat yetdi.

Aytish kerakki, qo'shinlarimiz so'nggi turdagi oddiy va murakkab vazifalarni bajarishga qodir turli vertolyot transportlari bilan butlangan. Parvozgacha bo'lgan tayyorgarlik mazkur harbiy qismda joylashgan o'quv trenajyori va nazariy dars mashg'ulot xonalarida o'tkazildi. An'anaga ko'ra, parvoz avvalidagi tegishli vazifalar va ko'rsatmalar muhokamasidan so'ng uchuvchilar topshiriq ijrosiga kirishdi. Avvalo, tibbiyot punktida harbiy uchuvchilar salomatligining parvozga yaroqliligi tekshirildi. Bu vaqt oralig'ida muhandislar tomonidan vertolyotlar xavfsiz uchish va qo'nishni amalga oshirishi uchun texnik ko'rikdan o'tkazildi.

OSMONDA UCHISH ZAVQI

Parvozga qadar barcha bosqichlar nihoyasiga yetkazildi. Vertolyotlar uchishga shay. Vertolyotni boshqarishda asosiy uchuvchi o'ng, yordamchi uchuvchi esa chap tarafdin joy egallaydi. Ammo bugungi amaliy mashg'ulotda kursantlar asosiy uchuvchi o'rindig'iga mahkam joylashgan. Parvoz zavqidan bebahra qolmaslik uchun biz ham orqa o'rindiqqa joylashdik. Vertolyot kabinasiga kirishi bilanoq, yosh uchuvchilarning boshqaruv jarayonida zimmasiga katta mas'uliyat hissi yuklanishini his etasiz. Chunki ular vertolyotni havoda bir joyda ushlab turish, aylana bo'ylab parvozlari, shuningdek baland tog' maydonlari hamda yo'nalish bo'ylab parvoz manyovrlarini amalga oshirishdan iborat. Shu kuni ayni mashg'ulot sinovlarini nafaqat Harbiy aviatsiya instituti bitiruvchilari, balki 2- va 3-bosqich kursantlari ham topshirdi. Guvohi bo'ldikki, harbiy uchuvchilarimiz amaliy uchish mashqlarini muvaffaqiyatli bajardi. Maqsad bitta – xavfsiz parvoz va mamlakat mudofaasi.

Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Harbiy aviatsiya instituti zamon talablariga to'liq javob beradi. Malakali ustozlar ta'lim berishi uchun barcha vositalar bilan ta'minlangan. O'quv laboratoriyalari, reallikka yaqinlashtirilgan parvoz hamda otish trenajyorlari, sport zali, kutubxona, oshxona, turli yo'nalishlardagi to'garaklar doim kursantlar bilan gavjum. E'tiborlisi, ularning nazariy bilimlarini chinakam aerodromda tatbiq etib, yanada mustahkamlash amaliyoti samarali yo'lga qo'yilgan. Mudofaa vazirligi harbiy

aviatsiya bo'linmalarida sohaning yetuk, malakali ustalari bo'lajak mutaxassislariga "Ustoz-shogird" an'anasi asosida o'z tajribalarini o'rgatadi.

– Bu yerda institut kursantlari mas'ul yo'riqchilarga shogird sifatida biriktiriladi, – deydi Mudofaa vazirligi harbiy qismi uchuvchi-shturmani katta leytenant Jasurbek Samariddinov. – Ularga ikki hafta mobaynida parvoz vaqtida rioya etilishi zarur bo'lgan barcha shartlar, nosozlik sodir bo'lganda ekipaj harakati, xavfsiz qo'ndirish qoidalari sinchiklab tushuntiriladi va trenajyorlarda maxsus tayyorlanadi. Ayni jarayonga men ham harbiy vertolyotda 700 marotabadan ziyodroq osmonga ko'tarilgan va 160 soatdan ortiq parvoz vaqtiga ega uchuvchi sifatida hissa qo'shayotganimdan xursandman. Bu yerda berilayotgan tavsiyalar institutdagi ustozlaridan olgan bilimlari bilan uyg'un ravishda bo'lajak hamkasblarimizning amaliy parvozlarida poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Kursantlar amaliy parvozini a'lo darajada uddaladi. Yo'riqchi uchuvchilar ham maslahatlari beiz ketmaganidan mamnun. Ikki kun mobaynida harbiy qism komandiri boshchiligidagi ahil jamoa bilan bamaslahat ishlaganimiz bois vaqtimiz mazmunli o'tdi. Zotan, "Chirchiq" aerodromining ustidan o'tgan har bir bulut, zamin yuzasiga tushgan har bir yomg'ir tomchisi, tog'lar ortidan ko'tarilgan zarrin quyosh Vatan osmonining tinchligi uchun xizmat qilayotganlarning fidoyiligiga guvoh. Bu osoyishtalik ortida esa doimo yurt himoyasiga shay turgan kuch va tayyorgarlik mujassam.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**



Havo-desant tayyorgarligi



YURT OSMONI QO'RIQCHILARI

Tong sahar. Keng maydon uzra hayot nafasi ufuradi. Dalada shovqin-suron emas, balki tartib-intizom va jangovar ruh hukm suradi. Ko'kka tikilgan ko'zlar – unda shunchaki moviylik emas, balki yurt osmonining tinchligi, ona zamin osoyishtaligi uchun jonini tikkan desantchilarning qat'iy maqsadi aks etadi. Har bir parashyut sumkasi, har bir jihoz – nafaqat temir va mato, balki yillar davomida orttirilgan tajriba, matonat hamda mas'uliyatning timsoli edi.

O'quv yili rejasiga muvofiq, Toshkent harbiy okrugi "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida navbatdagi amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Mazkur mashg'ulotlar yurt himoyachilarining jangovar tayyorgarligini yanada mustahkamlash, desant operatsiyalarini turli sharoitlarda aniq va samarali bajarish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qildi. Yerdagi har bir nazariy dars, har bir jismoniy tayyorgarlik mashqi – havodagi murakkab harakatlarning poydevori. Shu bois harbiy xizmatchilar mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich, puxta reja asosida olib bordi.

Tayyorlov jarayonida barcha jihatlar sinchkovlik bilan tahlil qilindi: parashyut jihozlarini to'g'ri taqishdan tortib, havoda harakatlanish algoritmigacha. Har bir askar o'z vazifasini mukammal bilishi, ularni o'zaro muvofiqlashtira olishi – bu amaliyotning eng asosiy maqsadi edi.

Mashg'ulotlarning yakuniy bosqichida tayyorgarlikdan qoniqarli o'tgan harbiy xizmatchilar 1 200 metr balandlikdan parashyut bilan sakrash amaliyotini bajardi. Havoga ko'tarilgan desantchilar aniq buyruqlar asosida bir-birini to'ldirib, havoda ham, yerga qo'ngach ham uyg'un harakat qildi. Bu faqatgina jismoniy tayyorgarlik emas, balki o'zaro ishonch va jamoaviy mas'uliyatning yorqin namunasidir.

– Desantchilar bilan navbatdagi amaliy sakrash o'quv mashg'ulotini muvaffaqiyatli yakunladik, – deydi podpolkovnik Zohidjon Avazov. – Desant operatsiyalari eng murakkab jangovar vazifalardan biri bo'lib,

unda bir soniyalik ikkilanish yoki noto'g'ri harakat butun guruh faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois biz har bir bosqichni sinchkovlik bilan o'rganamiz – jihozlarni tayyorlashdan tortib, havodagi harakatlar, parashyutni ochish va qo'nish texnikasigacha. Mashg'ulotlar jarayonida yurt o'g'lonlari nafaqat individual mahoratini oshiradi, balki bir-biriga ishonishni, qarorlarni tezkor qabul qilishni ham o'rganadi.

Bu kabi amaliy mashg'ulotlarda desantchilarimiz har qanday vazifani, hatto eng kutilmagan sharoitlarda ham qat'iyat bilan bajarishga qodir bo'ladi. Bizning asosiy maqsadimiz – yurtimiz osmoni va tinchligini qo'riqlashga doimo tayyor, jasoratli va puxta bilimga ega bo'lgan desant bo'linmasini tarbiyalash. O'tkazilayotgan mashg'ulotlar

esa ertangi kun xavfsizligi yo'lida qo'yilgan mustahkam qadamdir.

Jarayonni bevosita kuzatib, bu kabi amaliy o'quvlar nafaqat desantchilarning kasbiy mahoratini oshirishi, balki ularning ruhiy va jismoniy tayyorgarligini mustahkamlashiga amin bo'ldik. Shubhasiz, har bir mashg'ulot – bu tajriba, har bir sakrash – bu ishonchning mustahkamlanishi, har bir muvaffaqiyat – milliy armiyamizning qudratiga qo'shilgan yangi kuch. Bizning bu fikrimizni ilk bor parashyut bilan sakragan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Bekmurod Qurbonov ham tasdiqladi.

– Parashyut bilan birinchi marta sakraganim uchun biroz hayajon bo'ldi, – deydi u. – Ammo biz o'tagan puxta tayyorgarlik, o'rgangan nazariy bilimlar va doimiy amaliy mashg'ulotlar barcha qo'ruqlarni yengib o'tishga yordam berdi. Havoga chiqqanimizda yurak urishi tezlashadi, ammo shu paytda komandirning ovozi, yoningizdagi safdoshingizning ishonchli nigohi sizni o'z holatingizga qaytaradi. Sakrash jarayonida havoning sovuq nafasi yuzingizni qizartiradi, Yerning tobora yaqinlashib kelishi esa ichingizda g'urur va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytiradi. Bu – nafaqat texnik ko'nikma, balki ruhiy sinov ham. Eng muhimi, biz bir jamoa sifatida bir-birimizni his qilib, har bir harakatimizni uyg'unlashtirib, belgilangan vazifani aniq va puxta bajarishga erishdik. Shu lahzada angladimki, bu mashg'ulotlar faqatgina hozirgi topshiriq uchun emas, balki yurt tinchligi va xavfsizligi yo'lida bo'ladigan har qanday vaziyatga tayyor turishimiz uchundir.

Bugun yurt osmonini qo'riqlayotgan desantchilar shunchaki, o'z kasbining ustalari emas, balki fidoyilik, jasorat va mas'uliyat timsolidir. Ularning doimiy tayyorgarliklari ertangi kun tinchligi va xavfsizligining kafolatidir.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

Mardi maydonlar

Bugungi kunda artilleriya bo'linmalari jangovar vazifalarni bajarishda bosh kuch hamda muhim tezkor-taktik vosita hisoblanadi. Ular arsenalida mavjud zamonaviy to'plar, reaktiv qurilmalar, gaubitsalar, minomyotlar artilleriya bo'linmalarining o't ochish imkoniyatlari, jangovar harakatlar samaradorligini yanada oshiradi.

OTILGAN SNARYAD NISHONNI YO'Q QILADI



Markaziy harbiy okrugning "Forish" tog' poligonida artilleriya bo'linmalari ishtirokida o'tkazilgan navbatdagi o'quvlar ham ayni maqsadlarga xizmat qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, harbiy xizmatchilar 10 ga yaqin nuqtada nazariy va amaliy mashg'ulotlarni bir vaqtning o'zida olib bordi. Har bir jarayon real vaziyatlarga yaqin tarzda tashkil etildi. Ko'p yillik tajribaga ega mutaxassislar yurt o'g'lonlarining osondan murakkab tamoyili asosidagi vazifalarni bajarishlarini kuzatib, tavsiyalar berib bordi. Xususan, artilleriya qurollaridan mo'ljalga olish, qo'zg'almas nishonlarga zarba berish, shuningdek jangovar sharoitda aloqa vositalaridan tezkor va samarali foydalanish hamda yaradorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmalar mustahkamlandi.

– Amaliy mashg'ulotlarni bugungi kun talablari asosida tashkil etish – jangovar shaylik darajasini yanada oshirish imkonini beradi, – deydi katta leytenant Jonibek Sharipov. – Shu bois artilleriya mutaxassislari ishtirokidagi mashg'ulotlarda

ortadi. Ushbu o'quvlar esa shaxsiy tarkib uchun yangi bilim manbai va tajribalarni o'rttirish maydoni bo'ldi.

Albatta, artilleriyada aniqlik o'ta muhim. Chunki nishon joylashgan hududga to'g'ri berilgan zarba yo'naltiruvchining egallagan bilimiga ko'p jihatdan bog'liq. U aniq hisob-kitob qilishi, guruh bilan birgalikda ishlay olishi, komandirning qaroriga ko'ra, ish ko'rishi – ko'zlangan marrani zabt etishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, harbiy xizmatchilar mashg'ulotlar davomida har bir omilni e'tiborga olib, topshiriqlarni bajardi. Dastlab shartli dushman istehkomi parametrlari aniqlashtirildi va bo'linmalarga tezkorlik bilan uni yakson etish koordinatalari berildi. So'ngra shartli dushman tirik kuchlari va harbiy texnikalari kolonnasini ifodalovchi nishonlarga ketma-ket va qaqshatqich zarbalar berildi.

– Bo'linmalardan har qanday sharoitda qo'yilgan vazifani bajarish talab etiladi, – deydi III darajali serjant Jasur Ziyodullayev. – Shunday ekan, biz bildirilgan ishonchga har tomonlama munosib bo'lishimiz shart. Buning uchun esa tinimsiz mashq va mashg'ulotlarda qatnashib, kasbiy bilimlarimizni yuksaltirishimiz lozim. O'tkazilgan mazkur o'quvlar o'zaro tajribalarimizni almashish va mustaqil qaror qabul qilish, eng muhimi, birgalikdagi harakatlarimizni muvofiqlashtirishimizga zamin yaratdi. Qolaversa, yosh harbiy xizmatchilar qalbida ona Vatanga bo'lgan muhabbat, kasbga sadoqat tuyg'ularini yanada shakllantirishga ham erisha oldik, deb bemalol ayta olamiz.

Aytish kerakki, amaliy mashg'ulotlar nafaqat kunduzgi, balki tungi, ya'ni ko'rish cheklangan sharoitlarda ham olib borildi. Unda shaxsiy tarkibning noqulay vaziyatlardagi harakatlari amaliy jihatdan ko'rib chiqildi. Bo'linmalarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash, yangi otish uslublaridan foydalanishga e'tibor qaratildi.

Tungi sharoitlarda olib borilayotgan o'quvlardagi topshiriqlarni ado etishning o'zi bir mahorat. Sababi bunday hollarda harbiy xizmatchining har bir harakati nafaqat o'ziga, balki uning safdoshlarining hayotini ham xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu sababli ushbu jarayonlar davomida yigitlarning diqqatini oshirish, shu bilan birga nostandart vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish, eng asosiysi, bo'linmaning ruhiy ko'nikmasini shakllantirish bosh maqsadlardan biri sifatida qaraldi.

Bugungi davr har qaysi sohada tinimsiz izlanishni, zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etmoqda. Chunki bugun erishilgan yutuq, ertaga eskirishi, yangilanishga muhtoj bo'lishi turgan gap. Ana shu tamoyilni o'zlariga shior qilib olgan soha mutaxassislari mazkur o'quvlar davomida ham bajarilishi murakkab bo'lgan topshiriqlarni sifatli, a'lo darajada ado etdi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Katta leytenant B. ILHOMJONOV

jahon va mintaqada kuzatilayotgan qurolli to'qnashuvlar, jangovar harakatlar chuqur tahlil qilib o'rganilmoqda.

Har bir jihat diqqat markazimizda.

Chunki mashg'ulotlarda ilmiy

asoslangan taktikalarni joriy

etish – muvaffaqiyat omili

hisoblanadi. Qachon shaxsiy

tarkib berilgan topshiriqni

kutilganidek uddasidan

chiqadi? Qachonki,

ularga yetarli ko'nikma

berilsa, o'ziga bo'lgan

ishonch oshirilsa,

shunga monand

natijalar ham

BILIM VA KO'NIKMALAR OSHIRILDI

Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikning o'quv yili rejasiga muvofiq, Samarqand viloyatida joylashgan harbiy qismda hamkorlikdagi kuch tuzilmalarining viloyat bo'yicha hududiy tezkor guruhlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari ishtirokida ko'rgazmali mashg'ulot o'tkazildi.



Hamkor tuzilmalar bilan birgalikda jangovar shaylikni sinovdan o'tkazish, obyektlarni qo'riqlash yuzasidan harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida o'tkazilgan o'quvda sodir etilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy tabiiy va texnogen ofatlarni bartaraf etishdagi harakatlar ko'rib chiqildi.

O'quvlar to'rtta nuqtada bir vaqting o'zida olib borildi. Barcha jarayonlar real sharoitga yaqin holda olib borildi. O'tkazilgan mashg'ulotlarga keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ham jalb etildi.

Mashg'ulot yakunida kuch ishlata tuzilmalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha o'zaro kelishib olindi.

Bunday o'quvlarning o'tkazilishi harbiy xizmatchilarni ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, hamkorlikdagi tuzilmalar bilan vazifalarni uyg'unlik bilan bajarishga hamda bu jarayondagi bilim va ko'nikmalarni oshirishga xizmat qiladi.

TOQQQ matbuot xizmati



“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga

JADIDLARNING MILLIY TAFAKKUR VA VATANPARVARLIK YO'LIDAGI XIZMATLARI

Millat uyg'onishining bosh manbai – tafakkur islohoti. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida yangilanish, erkinlik va intellektual uyg'onish uchun kurash boshlangan edi. Bu harakatning boshida jadid ziyolilari turardi. Ular xalqning o'zligini anglashiga, tafakkurini uyg'otishga, Vatan g'oyasini qalblarga singdirishga xizmat qildi. Jadidlarning asosiy quroli ilm, ma'rifat va zamonaviy tafakkur bo'ldi.

Yangi maktab – yangi avlod: fikr, tafakkur va Vatan uchun!

Jadidlar zamonaviy maktablar ochib, o'quvchilarga diniy bilim bilan birga fizika, matematika, tarix, geografiya kabi fanlarni ham o'rgatdi. Ular farzandlarni shunchaki o'qitmadi, balki ularda milliy g'urur, tafakkur erkinligi va Vatanga muhabbat tuyg'ularini uyg'otdi. Bu maktablar mustamlaka davrining loqayd va itoatkor fuqarosini emas, balki erkin fikrlaydigan, mustaqillikka intiladigan avlodni yetishtirishni maqsad qilgan edi.

1910-yillarga kelib Farg'ona vodiysida 200 dan ortiq yangi usuldagi maktab faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu – Turkiston xalqining ma'rifat yo'lida qanday uyg'onayotganidan dalolat beradi.

Matbuot – millat ko'zgusi, fikr maydoni. Jadidlar o'z g'oyalarini faqat maktab orqali emas, balki matbuot vositasida ham keng yaydi. “Shuhrat”, “Taraqqiy”, “Sadoyi Turkiston”, “Hurriyat” kabi gazeta va jurnallarda Vatan, ozodlik, til, din va ma'naviyat mavzulari muhokama qilindi. Har bir maqola orqasida xalq taqdiri uchun kuygan yurak, xalqparvar ong bor edi.

Jadidlarning matbuotdagi faoliyati xalqni ogohlikka, ijtimoiy faollikka undadi. Ular uchun har bir satr – bu kurash, har bir so'z – bu mas'uliyat edi.

Bugun jadidlardan nima o'rganamiz? Global axborot oqimi, madaniyatsizlik targ'iboti,

sun'iy intellekt bilan to'qnash kelayotgan hozirgi yosh avlod uchun jadidlarning merosi – yo'lboshchi, ruhiy qalqon, milliy identitet manbai bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, milliy qadriyatlarga ega bo'lgan yoshlar ruhiy barqarorlik, kuchli ijtimoiy o'zlik va psixologik mustahkamlik bilan ajralib turadi.

Bugun biz jadidlarning merosini faqat o'rganib emas, balki uni amalga joriy etish, tizimli ta'limga aylantirish, xalq ongiga singdirish bosqichiga o'tishimiz zarur.

O'tmishdan saboq olib, ertangi tong sari. Jadidlar Turkiston tarixida faqat ma'rifatchilar emas, balki milliy tafakkur yo'lboshchilari, vatanparvarlik namunalari, xalqning o'zligini uyg'otgan qahramonlar sifatida tarixda qoladi. Bugun ularning ovozi – bu bizning yuragimizdagi Vatanga muhabbat, bilimga tashnalik va o'zligimizni yo'qotmaslik istagidir.

Jadidlar islohoti – bu bizning ma'naviy ildizimiz.

Milliy tafakkur – bu bizning ertamizga ochilgan eshik.

Vatanparvarlik – bu bizning or-nomusimiz, harakatga undovchi kuchimiz.

Olim MURTAZAYEV,
iqtisodiyot fanlari
doktori, professor.
Farrux ABBASOV,
pedagogika fanlari bo'yicha
f.f.n. (PhD)



O'G'LONLAR XOTIRASI



Ota duo qildi, qo'shildi ona,
Qarog'iga to'ldi ayriliq yoshi.
“Yo'ling yorug' bo'lsin, oy borgin, bolam...”
Diliga tugildi sog'inch, bardoshi.

Qo'shni qiz devordan qoldi qo'l siltab,
Muhabbat iqrori ko'ksida pinhon.
Ro'molcha tikkandi yigitga atab,
Chetiga bitilgan rozi dil, paymon.

O'g'lon ketdi shaxdam, burchi sharaflı,
Vatan tinchligini asramog'i shart.
Bu yo'lda jonfido etsa ham mayli,
Posbonlik sha'niga tekkizmagay gard.

Manfur yov tinchimas hurlik qasdida,
El tinchin buzmoqlik g'araz maqsadi.
Din-u diyonatsiz jallod aslida,
Na bir millati bor, na bir matlabi.

Sheryurak o'g'lonlar otlandi jangga,
Maqsad – bosqinchilar izin quritmoq.
G'addor qo'l cho'zmasin ona maskanga,
Otashda qolmasin bu aziz tuproq.

Terrorchi to'dalar izg'ir qashqirdek,
Tog'-u toshlar aro pana-pastqamda.
Odil jang qilmoqqa jur'ati yo'q lek,
Vatansiz, iymonsiz, ko'ksi alamda.

O'rtada boshlandi ayovsiz urush,
Bir tomon yurtim deb ko'ksi yonganlar.
Bir tomon nafsiga qul vatanfurush,
Onadan tonganlar, o'zdan tonganlar.

Dushmanga otildi olov misoli,
Sayyor-u Elomon, Bobur, Qahramon...
Kelgindi yog'iyning tang bo'ldi holi,
Maqsadiga yetmay, itdek berdi jon.

Ona Vatan sari otilgan o'qqa,
O'g'lonlar ko'ksini tutdi mardona.
Navqiron umrlar singdi shafaqqa,
O'chmas qahramonlik bo'ldi afsona.

O'ktam o'g'lon ketdi, qaytmadi ortga,
Ayriliq otashin jim yutdi ona.
“Men sendan roziman, bolam”, demoqqa
O'zida kuch topdi yuragi yona.

Mardlarni unutmang, unutmang, zero
Ular sadoqatning jigarbandlari.
Mardlarni unutmang, unutmang aslo,
Ular ona elning jon payvandlari.

Yillar almashadi, o'tar asrlar,
Ardoqlab jasorat madhiyasini.
Unutmas mardlikka qodir nasllar,
Qahramon o'g'lonlar xotirasini.

Zulfiya YUNUSOVA

“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga

DUNYODA TURMOQ TALABLARI

(hujjatli esse)



– Yurtni qullikdan qutqarishning yagona yo'li ilm-fanni rivojlantirishdir. Tasavvur qiling, mingtepalik Muhammad xalfa to'plagan kam sonli ko'ngilli qo'shini bilan o'sha hududda g'olib bo'ldi. Keyin-chi, keyin nima bo'lardi? Harakat qanday boshqarilardi? Xalifalik qoidalari asosidami? Axir bunday yo'l tutgan qanchadan qancha Sharq davlatlari harbnining ilg'or texnologiyalarini ixtiro qilgan yevropaliklarga yem bo'ldi-ku.

Xuddi shuningdek, Turkiston ham tish-tirnog'igacha qurollangan Rossiya davlatiga qul bo'ldi. Qolaversa, qurol-yarog'ni qayerdan olardi? Shu kabi qalashib keladigan savollar galasiga avvaldan javob izladimi u? Qudratli harbiy qurollarga ega bo'lgan va eng asosiysi, har bir norozilikni jazolash qo'shinlari bilan ayovsiz bostiradigan dushmanga qarshi dastursiz kurashib bo'ladimi? Har bir qishloq aholisini, hududning o'ziga xosliklarini besh barmog'idek yaxshi bilgan Chor harbiylari qo'zg'olonchilarni ne ko'yga solishi shu paytgacha bo'lgan noroziliklar yakunidan ma'lum-ku... Mustamlakachidan qutulish uchun ming kishini emas, butun millatni tarbiyalash zarur. Bu ish oilalarda, eski maktablarda emas, yangi maktablarda, zamonaviy ilmlarni o'rgatadigan madrasalarda amalga oshirilishi kerak... Yurtni mustaqil boshqara oladigan, milliy qadriyatlarini asragan holda rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan avlodni tarbiyalash zarur. Bu yo'lda davrning barcha ta'sirchan vositalaridan imkon doirasida foydalanish ayni muddaodir... Bu kabi ayon haqiqatlarni tan olish muhimdir.

Mahmudxo'ja xayolida shu fikrlarni tafakkur qilar ekan, “Naqadar qiyin bo'lmasin, ma'rifat yo'li to'g'ri yo'ldir”, degan xulosaga keldi.

Buning uchun mustabidlar siyosatiga xizmat qiladigan chalamullalar tayyorlaydiganlarga o'xshamaydigan usuli jadid maktablar ochish kerak.

HOZIRGI AHVOLIMIZ AYANCHLI. Toshkentlik Munavvarxon inimiz to'g'ri gaplarni yozdi. “Har millatning maktab va madrasasi o'ldig'i kabi bizning ham maktab-madrasalarimiz garchi benizom va beusul o'lsa ham, yo'q demak darajada oz emas. Har millat avlodini tarbiyalash va ta'limi ulumda ko'rsatgan himmat va g'ayrati kabi bizlarda ham o'z ma'sum avlodlarini jaholat va g'aflat zulmatida qolmoqig'a hech bir rizolari o'lmay, qo'llaridan kelgancha ta'lim va tarbiyati avlodda qusurlik ko'rsatmakchi zotlar mavjuddirlar. Va lekin dunyog'a nima uchun kelgonini bilmay, ilm va maorifg'a aslo

rag'bat qilmay, jonidin shirin bolalarini ko'cha-bako'cha kezdirib, bechora ma'sumning aziz umrini jaholat otashina yondirg'uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko'p dindoshlarimizni ko'rarmizki, o'z farzandlarini aslo maktabg'a bermay, orqalaridin ergashtirib, ruslar eshigida o'zlari kabi xizmatchilikka o'rgatib, dunyo va oxiratning saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qo'ymoqdin hech bir ibo qilmaslar. Ba'zi azizlarimiz bordurki, o'g'lini qo'lidin tutib maktabga olib borur. Muallimdan tolib qilurg'a: **“Taqsir, shu o'g'limni go'shti sizniki, ustixonini bizniki, bir iloj qilib, tezlik ila naqd va nasiya yozmoqni o'rgatib berursiz”,** der.

“Eshagiga yarasha tushovi”, deganlaridek, muallimlar ham aksarlari qonuni ta'lim-tarbiyadin butun-butun bexabar kishilar o'lub, balki o'quv va yozuvni ham loziminch bilmassliklari vajhidan bechora ma'sumalarni iste'dodi zotiyasig'a nazzora ikki yil zarifida jami lavozumoti diniyani bildirmoq mumkin o'lg'on holda to'rt-besh yilg'acha hijja usuli birla dunyo va oxirarga foydasi bo'lmag'on Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz va Bedil kabi mushkul manzuma kitoblarg'a umri azizini barbod etarlar.

EY VATANDOSHLAR! Diqqat nazari ila boqing! Bir bolani maktabg'a bermakdan maqsudi vojibot diniyamiz o'lg'on ilmi qiroat, masoili e'tiqodiya,

farz, vojib, sunnat mustahab, harom, makruh, namoz va ro'za, haj va zakotlarni ham zaruroti dunyaviyamiz o'lg'on ilmi hisob, jug'rofiya, tavorix, xususan “Tarixi islom” kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o'lg'on holda johil domlarning “ta'limi faloniy, qoshi qaro, qaro ko'zi, qaro yuzi, oh, so'zi shirin”, deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on manzuma kitoblar o'lmish”.

Naqadar to'g'ri gaplar. Yangi maktab dastur va darsliklari yangidan yoziladi. Yangi fanlarni o'qitadigan muallimlar tayyorlanadi. Buning uchun haj safarida ko'rgani kabi yangi ilg'or maktablar tajribasidan foydalanadi.

Samarqandda 1903-yildan maktablar tashkil etila boshladi. Ona tilida o'qitiladigan yangicha darsliklar yaratish ishiga kirishdi. Samarqand shahri yaqinidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlaridagi yangi maktablar uchun “Risolayi asbobi savod” (1904), “Risolayi jug'rofiyayi umroniy” (1905), “Risolayi jug'rofiyayi Rusiy” (1905), “Muntahabi jug'rofiyayi umumiy” (1906), “Kitobat ul-atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kitoblarini yozib, chop ettirdi. Shu bilan birga, geografiya va tarix fanlari uchun xarita tayyorlab, bosmadan chiqardi. Mazkur nashrlardagi o'ziga xos yangi ma'lumot va fikrlar, ularning ahamiyati haqida ko'p gapirish mumkin.

Biz esa misol tariqasida “Muntahabi jug'rofiyayi umumiy” darsligiga nazar tashlaymiz. Eski maktablarda mutlaqo o'qitilmagan, faqat jadid maktablarida tatbiq etilgan, Behbudiy va safdoshlarining kofir deb e'lon qilinishiga sabab bo'lgan mazkur fan aholi, ayniqsa yoshlar ongida katta o'zgarishlar yasadi. Negaki, Behbudiy bu fan zamiriga juda katta axborot, bilimlarni joyladi. Masalan, darslikning avvalida atamaga sharh beradi:

“Jug'rofiya degan so'z yunon lug'ati arabiyg'a ta'rif arzi ma'nosi'ga, ya'ni yer va tufroqni bayon qilaturg'on ilmni(ng) otidur. Jug'rofiya ilmni necha naf' foyda va bayonlari bo'ladur”, deya bu fanning siyosiy, tarixiy zaruratini batafsil yoritadi.

“Anga qarab ushbu ilmga tiyishli bayon va fanlar bir necha ism ila ataladur. Chunonchi, yerni shakldan osmon ila yer orasidagi xosiyati va osmondagi nimarsalar ila nisbati va harakatidan bayon qilaturgan ilmni “Jug'rofiyayi riyoziy”, yerning xosiyati tufroq, past va balandligi, har xil giyoh va konlari, tog', daryo, ko'l, mizoj va havosidin bahs qilaturgan ilmni “Jug'rofiyayi tabiiy” ataladur. Yer yuzidagi katta hodisalar ila urug', hukumatdorlik, xulosa – yer ustig'a bo'lgan voqealar to'g'risida har bir nav' ishni ushbu ilmg'a bayon qilinub, jug'rofiya kalimasini oxirig'a o'shal

ishg'a taalluq ilm-fanning oti qo'shiladur. Chunonchi, “Jug'rofiyayi tarixiy”, “Jug'rofiyayi siyosiy”, “Jug'rofiyayi umroniy” va boshqalaridek. Xulosa, bu zamong'a jug'rofiya ilmi dunyoni va ondagi xaloyiq, hayvonot, umronot va harnaki, dunyog'a bordur – bildiraturgan keraklik bir “ilmi jahonnamosur”.

Farzandlarga tarix, siyosat haqida ham shu fan vositasida saboq bermochi Behbudiy. Xususan, “Turkiston donishmandlari” faslida tarix va unda faol bo'lgan, dunyoni hayratga solgan bobolar haqida muhim axborotlar mavjud.

“Aqliy va fanniy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan musulmon ulamo va hukamolari nihoyat ko'bdur. Inchunin, Turkiston muzofotiga avsub shar'iy va aqliy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan nihoyat mashhur ulamolarni(ng) adadi necha yuzdan o'tadi.



Bu kitobimiz aqliy va fanniy ilmlarg'a taalluq uchun aqliy va fanniy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan va nihoyat mashhur Turkiston ulamo va hukamo, muarrix, musanniflarni munda yozamiz, ki ushбудur. Agarda aqliy va fanniy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan "Turkiston ulamolari"ning hammasining ahvoli va tasnifotini yozmoq lozim bo'lsa, ushbu kitobimizdan ham kattaroq bir kitob tayyorlamoq kerak bo'lardur".

O'zining kimligini unutgan va oyoqosti bo'lgan avlodga donishmand bobolarini tanitayotib, ularning ko'pligi bois ba'zilarini aytib o'tamiz, demoqda Behbudiy.

"Shayx ur-ra'is Ibn Sino Abu Ali – lug'at, mantiq, jug'rofiya, musiqa, axloq, kimyo, abtisol ahkomi nujum, tabi'at, muvofiq al-tabi'at, hikmat, tib, rasad, nujum, ilmi nabotot, ilmi tavidhig'a yuzdan ziyoda kitob tasnif qilgandur, ki musulmon hukumolarini(ng) avvalidur. Aksar kitobi Ovrupo tillarig'a tarjima bo'lgan. Va farangiyalar "Avissen" ataydurlar. Vafoti 428 sanag'adur.

Abu Nasr Forobiy – zamonidagi barcha tillarni bilar ekan, ki "Qonun" degan asbobi tag'anniyni ijod qilib ekan. Barcha tasnif qilgan kitobi 70 qadar. Va ilmi tavidh, fiqh, musiqiy, riyoziy, hay'at, mantiq, hikmat ilmlarig'a tasnifoti bor. Vafoti 339 nchi sanag'adur".

SHU TAXLIT Xo'ja Faxriddin, Hakim az-Zarif Marviy, Badriddin Samarqandiy, Najibiddin Samarqandiy, Abdurahmon Xorazmiy, Abu Yazid Balxiy, Abdulrahmon Marzaviy, Abdurazzoq Hirotiy, Abu Ibrohim Ko'ragoniy, Sharif Xorazmiy, Ahmad bin Tayyib Sarmisiy, Abu Ma'shar Balxiy, Abu Ja'far Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Muhammad Chag'miniy Buxoriy, Ali Qushchi Samarqandiy, Shamsiddin Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy Samarqandiy, Muhammad Xo'jandiy, Abdulloh Farg'oni, Abu Rayhon Xorazmiy, Muhammad Farg'oni, Abu Sa'id Sam'oni, Abdurazzoq Samarqandiy, Mir Abdulkarim Buxoriy kabi olimlarning dnyo ilm-faniga qo'shgan hissalarini sanab o'tadi. "Bulardan boshqa aqliy ilmlarg'a kitob tasnif qilgan bir necha

turkistoniy donishmandlarni(ng) ta'rix va tarjimayi hol kitoblarig'a ko'ruladur. Ushbu mahalga yuqorig'a bayon bo'lganlar ila iktifo qilduk".

Behbudiy musulmon dunyosining, jumladan Ibn Sino, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi bobolarimizning salmoqli hissasi sabab Yevropada ilm rivojlanganini alohida ta'kidlab, bobolardan o'rnak olishga chaqirdi.

Nomlari sanalgan donishmandlarning aksari Mirzo Ulug'bek akademiyasi davrigacha yashab o'tgan. Davr beklarining o'lpon to'lashdan qochish maqsadidagi fitnalari sabab Mirzo Ulug'bekning qatl etilishi ilm-fanning tomiriga bolta urgan va saltanat tanazzuli boshlangan. Hukmdorlarning maishatparast va zolimligi, olimlarning mutaassibliigi sabab jamiyatning katta qismi savodsiz, g'arib ahvolga tushganini, oxir-oqibat buyuk davlat parchalanib, Yevropa mustamlakasiga aylanganini izohlab beradi.

Millat tanazzuli sabablarini tushuntirish mustamlakachiga yoqmasligi ayon. Lekin ilmga qarshi borolmaydi. Shu bois o'zimizdan chiqqan chalamullalar jadid maktablariga qarshi kurash boshlaydi. Masalan, masjidda o'qiladigan juma kungi ma'ruzada bunday bilimlarni berayotgan jadidlar kofir deya e'lon qilinadi.

Patnisdek tekislikda joylashgan Yer katta ho'kizning bir shoxida turishi, hayvon charchagach, Yerni ikkinchi shoxiga o'tkazayotganda zilzila sodir bo'lishi kabi tasavvurdagi olomon madaniyatini saqlashga, ya'ni ongsiz qullikni rag'batlantirishga yo'naltirilgan "Turkiston viloyatining gazet"i'dagi chiqishlarga qarshi yozilgan maqolalarida ham Behbudiy geografiya fanining zaruratini tushuntirib berishga harakat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy maktablar uchun birinchilardan bo'lib nafaqat geografiya darsliklarini yaratgan olim va pedagog, balki o'z davrida bu fan vositasida ozodlik uchun kurashishni maqsad qilgan yangi avlod tarbiyachisi hamdir.

YANA BIR MUHIM MASALA

– yangi fanlardan dars beradigan muallimlarni tarbiyalash ham Behbudiyning diqqat markazida bo'ldi. "Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasadir. Agarda o'shal maktab va madrasada muallim va mudarrisolari olim bo'lsa va shogirdlarig'a ko'ngli ilan ta'lim bersa, albatta, ilm hosil qilar. Agarda muallimni(ng) o'zi, hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhafsala va yoinki kamilm bo'lsa yoinki ilmi bo'la turub, usuli tahsildan xabarsiz bo'lsa, oni shogirdlari nodon qolur" ("Tujjor" gazetasi, 1907-yil 29-oktabr).

Bu bilan oliy ma'lumot beradigan, jumladan muallimlar tayyorlaydigan madrasalar islohihga ham alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ta'kidladi. Turkiston madrasalarida tafsir, hadis, tib, tashrih, hay'at, handasa, iqtisod, siyosat, geografiya, tarix kabi fanlar o'qitilmasligi bitiruvchilarning hayotda zarur bo'lgan bilimlarsiz qolishiga sabab bo'layotganini tanqid ostiga olib, boy va mutasaddilarni uning oldini olishga chorladi.

"Sukut saqlab yuraversak, besh-o'n yildan keyin yanada nodonroq bo'lib qolamiz, xor bo'lamiz. Shuning uchun ham jim yurishimiz yetar! Diniy madrasa va maktablarimizni isloh etaylik!"

Behbudiy o'rta ta'lim olgan talabalarning ilg'orlarini tanlab, chet ellarning rivojlangan ta'lim muassasalarida o'qitish taklifini ham bildiradi. "Madrasalarda sarfi va nahvi arabiy o'qug'on rushid talabalardan Turkiston va Buxoroni(ng) har bir shahridan aqal martaba to'rt nafardan Misr al-Qohira tahsili ilmi diniy va falsafayi zamoniy va adabiyoti arabiy uchun yubormoq kerak. Va bular Misrda uch yil muddat tahsili ilmg'a mashg'ul bo'lub, so'ngra Vatanimizg'a kelib, ilmi kalom, tafsir, hadis, adabiyoti arabiya va aqliyoti zamoniya ta'limiga ko'shish qilsunlar".

Behbudiy rahbarlik va homiylik qilgan maktablar ta'limi qanday natijalar bergan? Bu savolga javob tariqasida ushbu maktablarga kelib,

bolalar bilan gaplashgan ulug' tatar ma'rifatparvari Ismoilbek Gaspiralining xotirotni e'tiboringizga havola etamiz: "Maktabning yuztacha tolibi va uchta muallimi bor. Dasturida turkcha, forschacha va arabchening boshlang'ich darslari, din ilmi, jug'rofiya va tarix mavjud. Ohangini kelishtirib munojot, she'r o'qish – maktabga xos bo'lgan usul. Kichkintoy shogird o'quvchilarni ko'zdan kechirdik. Yaxshi tarbiya olganliklari, darslarni a'loga bajarishlari o'zlarini tutishlarida, ko'zlarida aks etgan nur va jasoratda zuhur etadi".

Bunday e'tiroflar o'zimizning mulkdor va ilg'or qarashli ziyolilar tomonidan ham bildirilgan. Buning mohiyatida Behbudiy ta'kidlagan mashhur fikr mujassam: **"Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, ilm va fandan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur"**.

Jadidlarning yana bir ma'naviy qahramonligi shundaki, ular millatni ma'rifatli qilish kerak, deya og'izdagina aytmadan, o'zlari mablag' yig'ib, maktablar ochdilar, ular uchun darsliklar yozdilar, o'qib-o'rganib, muallimlik qildilar. Asosiy e'tiborni aniq fanlarga yo'naltirdilar. Turkiston hamon soqol-u paranji muammolaridan chiqqa olmayotgan bir paytda Yevropa ilmiy taraqqiyot natijasida aeroplan va yangi qurollar ixtiro qilganini aytib, arxitektor, injener, ixtirochi va xalq xo'jaligi rivoji uchun zarur mutaxassislarni ko'paytirish maqsadida ta'lim tizimini takomillashtirdi. Jadid maktablarida tahsil olib, ziyolilar to'plagan mablag' hisobiga Olmoniyada o'qib qaytgan yoshlar birinchi qaldirg'ochlar edilar. Ularning maslagini (ozodlik) bilgan mustamlaka siyosati yosh mutaxassislarning barchasini qatl etgani zamirida katta ma'no borligini unutmasligimiz va jadid bobolar ishini davom ettirish uchun harakat qilishimiz shartdir.

Halim SAIDOV,
filologiya fanlari doktori,
professor



Harbiy jang san'ati

“Tarix qatlarida shunday lahzalar borki, ular millat taqdirini, davlatning kelajak yo'lini belgilab beradi. Amir Temurning Qunduzcha va Terek daryosi bo'yidagi janglari ana shunday dovuqli sahifalardandir. Bu ikki maydon – faqat qo'shinlar to'qnashgan joy emas, balki iroda, aql va jasorat sinovga tortilib, yo'qdan g'alaba yaratilgan tarixiy sahnalardir.



IRODA VA JASORATNING IKKI MAYDONI

Insoniylik, aql va adolat ustiga qurilgan saltanat sohibining tarix sahnasidagi so'zsiz zafarlari haqida quyida hikoya qilamiz.

QUNDUZCHA JANGI

1391-yilning aprel oyida Amir Temur Ulug' Tog'ga yetib bordi. To'xtamishxon bu safar ham yolg'on va'dalari bilan Turon qo'shinini ortga qaytarmoqchi edi, ammo Amir Temur uni bir emas, bir necha marta kechirdi, hatto yurtiga ikki marta bosqin qilganda ham, kechirim maqomida turib, ittifoqchilik uchun nomalar jo'natdi, ammo qoniqarli javob olish o'rniga yana uning xiyonatlariga duch keldi. Taxtdan mosuvo bo'lgan bechorahol hukmdorni kechirish mumkin, ammo so'zida turmaydigan kuchli raqibning so'ziga sira ishonch yo'q. Kuchli raqib soxtakor bo'ladi, qiyin vaziyatdan chiqib olish uchun yolg'on ishlatishdan qaytmaydi.

AMIR TEMUR uzoqni ko'radigan hukmdor bo'lgani uchun ham To'xtamishxonning kuchini qirqmasa, o'z tug'ilgan yurti, xalqi yana mo'g'ullar asoratiga tushib qolishi mumkinligini teran angladi. Musulmon olami bo'lmish Turonni ham, Eronni ham yovuz va makkor dushman qo'lga berib qo'ymaydi. 1391-yil 28-aprelda Ulug' Tog' cho'qqisiga chiqib, atrofini kuzatar chog'ida sangtaroslarni chaqirib, katta toshga bu yerdan o'tgan paytdagi sanani naqsh etishni buyurdi. Toshga: **“Tarix yetti yuz to'qson uchda, qo'y yili, ko'klamning o'rta oyida Turon sultoni Temurbek uch yuz ming askar bilan, islom dini uchun To'xtamishxonning xonligiga yurdi. Shu yerga yetib, belgi bo'lsin deb ushbu bitikni yozdirdi. Tangri nisbat bergay, inshoollo. Tangri el kishiga rahm qilgay, (fuqaro) bizni duo bila yod qilgay”**, deb yozdirdi.

Oradan uch oy vaqt o'tib, qo'shinning zaxira oziq-ovqat ko'chma ombori bo'shadi, hatto ortdan kelayotgan bozor peshtalarining ham

“suyagi” ko'rinib qoldi. Qo'shin esa faqat atala bilan kun ko'ra boshladi. Zaxira un ham tugagach, boshbalmoq o'ti qo'shib pishirilgan bir qozoncha atalani oltmish navkarga ulashadigan bo'ldilar.

Qo'shinni bunday qiyin vaziyatdan talafotsiz olib chiqish, birinchi galda, hukmdorning vazifasi sanaladi albatta. Amir Temur ikkilanib o'tirmasdan katta shikor o'tkazishga farmon berdi. Farmonga muvofiq, jami qo'shin keng hududda doira bo'lib harakat qildi. Ikki kun deganda doiraning ichi turli hayvonlar bilan to'lib-toshdi. O'lja tushgan hayvonlarning keraklisini ajratib olib, ba'zilarini, xususan bolalarini qo'yib yubordilar. Shu bilan nihoyatda katta o'lja qo'lga kiritilib, qo'shinning go'sht ta'minoti yaxshilandi.

To'xtamishxon ham ichidan pishgan sardor edi, ayg'oqchilari orqali Amir Temur qo'shinining oziq-ovqati tugaganini eshitib, ularni ortidan ergashtirib, tamom holdan toydirgach, pistirmadan hujum qilib, parokanda etishni ko'zladi. Tutib kelingan asirlar, ya'ni “til” ham buni tasdiqlaydi.

Amir Temur 1391-yil 29-may kunida Yoyiq (O'rol) daryosi bo'yiga yetib keladi. G'ajarchilar uch joyda kechuv borligini ma'lum qiladi. Bular Ayg'ir Yoli, Bur kichid, Champa kichid deb ataluvchi qulay kechuv joylari edi. Ammo harbiy ishlarda uquvi baland hukmdor Amir Temur ko'mamak va xoin, lafzsiz To'xtamishxonning hiylasini, makkor rejasini oldindan seza oldi va olti kun davomida daryo bo'ylab harakat qildi va shu yaxshi tadbiri bilan To'xtamishxonning pistirmadan turib, qo'qqisdan zarba berish rejasini puchga chiqardi.



1391-YILNING 18-IYUN KUNI havo ochilib, quyosh yuz ko'rsatdi. G'ajarchilar ikkala qo'shinning qorovul favjlari to'qnashgani haqida xabar qilganini yetkazgach, Amir Temur harbiy ko'rikdan o'tkazilgan ulkan qo'shinga jang boshlash haqida farmon berdi. Biroq bu gal u qo'shinning jangovar tartibini an'anaviy jarang'or (so'l qanot), mang'lay (markaz), barang'or (o'ng qanot) tartibida emas, yangi taktika – yettita mustaqil qo'lga ajratdi. To'g'ri, bu gal ham uchta asosiy qanot saqlanib qoldi, ammo endi jarang'or, barang'or ham o'z ilg'or yarakiga (avangardiga) ega bo'lib, mang'lay esa ham yarak, ham zaxira favji bilan kuchaytirildi. Markaz salohiyatli qo'mondon Muhammad Sultonga ishonib topshirildi. Qo'shinning orqa va zaxira qismi Amir Temurning o'z qo'mondonligi ostida qoldi. Bu sara tuman va janglarda ko'zi pishgan tajribali jangchilardan iborat yigirma favj edi. Bu favjlar manglay ortida joylashgan bo'lib, jangning biror joyida tanglik sodir bo'lsa, darhol yordamga shay turardi.

Umarshayx qo'mondonligidagi Andijon qo'shini so'l qanotda joylashgan bo'lib, uning javang'origa Berdibek va Xudoydod Husayniylar boshchilik qildi. O'ng qanot – barang'origa Mironshoh mirzo qo'mondon etib tayinlandi, uning yazaki Xo'ja Sayfidning berildi.

To'xtamishxon ham jangga qattiq tayyorgarlik ko'rdi, lekin u qo'shinni bu gal ham eskicha usulda (o'ng va chap qo'l, markaz) joylashtirdi. Qizig'i shunda ediki, Xivadan qochib ketgan Sulaymon so'fi ham uning qo'mondonlaridan biri sifatida unga yordamga oshiqdi. Bundan tashqari, janglarda ko'zi qotgan Toshtemir o'g'lon, Bek Yorliq o'g'lon, Navro'z qo'ng'iro't ham mo'g'ul qo'shinining asosiy zarbdor kuchlari safida turdi.

Amir Temur juda sovuqqon edi. Hatto butun qo'shinga chodir tikib, dam olishga izn berdi va har bir chodir ichida ikkitadan chiroq

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

yoqishni ham buyurdi. Bu ham dushmanga vahima tug'dirish uchun bir usul edi.

To'xtamishxonning bundan hayratga tushgani ham aniq edi, shu bois ilk jangda butun kuchini jang maydoniga tashlab, g'alaba qilishga intildi va bir qadar maqsadiga ham erishdi. Lekin bu ustunlik Amir Temurga ta'sir ko'rsatolmadi. Jang oldidan otdan tushib, ikki rakaat namoz o'qib, Alloh taolodan adolat va g'alaba tiladi. U barcha qo'mondonlariga chin ko'ngildan ishonar va ular ham nima uchun jang qilayotganini yaxshi tushunardi. Har bir askar uning uchun ham qadri yuksakligini teran anglardi.

VA SHUNDAY BO'LDI HAM: Turon qo'shinining o'ng qanbul qanotiga qo'mondonlik qilgan amir Sayfiddin hoji birinchi bo'lib jangga kirdi va javonmard askarlari bilan To'xtamishxon kuchlarini parchalab tashladi. Bu orada Muhammad Sulton boshliq favj ham jangga otildi va To'xtamishxon qo'shinining markaz va o'ng qanotiga zarba berdi. To'xtamishxon boshqa taktika qo'llashga kirishdi, ya'ni butun harbiy kuchini Umarshayx mirzo yetakchilik qilayotgan chap qanotga tashladi va bu gal Turon qo'shinini mushkul ahvolga tushirib qo'ydi. To'g'risini aytganda, juda murakkab vaziyat yuzaga keldi.

Ana shu o'rinda, ochig'i, sohibqiron Amir Temurning harbiy daho qobiliyati ish berdi. U vaziyatni teran angladi va butun diqqatini shu tomonga qaratdi hamda qo'l ostidagi 20 qismdan iborat sara jangovar qo'shinini yordamga tashladi. Bu o'z vaqtida ko'rilgan qat'iy va juda jiddiy taktika edi. Hujum Amir Temur qo'shinining ustunligi bilan boshlandi. Tez orada To'xtamishxon o'z kuchlaridan ajratib tashlandi. Uning mulozimlari ham bu holni zumda anglab, mag'lubiyat yaqinligini sezib, qochishga tushdi. Bir qism askarlari uning halok bo'lishiga bir baxya qolganini sezib, vahimaga tushdi. Ali Yazdiy yozganidek, To'xtamishxonning o'zi ham **“...uchqur otining jilovini ortga burdi va ming bir hiyla bilan qutulib qoldi. U qochishni afzal bilgan edi”**.

TEREK BO'YIDAGI JANG

Dunyoning o'z hisob-kitobi, biz anglab yetmaydigan sirlari mavjudki, ko'pincha aqli haminqadar kishilar: **“Birov bilib o'tiribdimi, hamma o'z manfaati uchun har qanday kir ishga qo'l uradi, bunday qilayotgan bitta menmanmi?!”** deya ko'k chizig'idan chiqib ketib, o'zlariga balo-qazoni sotib oladi. Amir Temurning ketma-ket zarbalaridan To'xtamishxonning ko'r ko'zlari ochilish o'rniga yopiqliciga qoldi va bu safargi ko'rmakligi unga qimmatga tushdi.

Amir Temur Qunduzcha jangida uni yer tishlatgan bo'lsa-da, Oltin O'rda davlati hali unga teng qudratga ega edi: ichki imkoniyatlardan foydalangan To'xtamishxon o'zini tezda o'nglab, yana ulkan qo'shin tuzishga erishdi va 1394-yilda Kavkazorti viloyatlariga hujum uyushtirib, qo'shini bilan Darbanddan o'tib, Shirvonshohlar hududiga bostirib kirib, talon-torjliklarni boshlab yubordi. Shirvonshohlar sulolasining to'rtinchi

vakili Ibrohim Darbandiy (1382–1417) mazkur o'lkaga hukmronlik qilar, Amir Temurga nisbatan do'stona munosabatda edi. Amir Temur ham uni qo'llab-quvvatlashga moyil edi. Shu bois Turon bahodirlarini Ko'ra daryosi bo'ylab olib yurib, mo'g'ul qismlarini ta'qib etdi. Ikki marta mag'lubiyat alamini tortgan To'xtamishxon ular bilan yuzma-yuz kelishdan cho'chidi va darhol ortga chekindi.

Amir Temur uni ko'zdan qochirmay, har bir harakatini kuzatib turdi. Kerak bo'lsa, abjir xufiyalarini jo'natib, uning rejalaridan ham voqif bo'lib turdi va bahor kelib, issiq kunlar boshlanishi bilan Oltin O'rda hududida qo'shinni jangga tayyorladi. Jang oldidan, har doimgidek, askarlarga maosh – ulufa ulashdi, nomdor jangchilariga imtiyozlar berib, qariyalarga nafaqalar ham tayinladi va ularni malikalar karvoniga qo'shib, ortga jo'natib yubordi.

1395-YIL 28-FEVRALDA Qulzum (*Kaspiy*) dengizi bo'ylab Darband sari yurdi. Shirvonshoh Ibrohim Darbandiy unga peshvoz chiqib, o'z itoatini izhor etdi. Amir Temur ham uning hurmatini o'rniga qo'yib, egniga kimxob chopon soldi hamda toj-u taxtini idora etish uchun ortiga qaytarib yubordi.

Shu orada sohibqiron o'zining ezgu diplomatiyasiga muvofiq ish tutib, eng ishonchli va donishmand elchisi Shamsiddin Olmaliqiy orqali To'xtamishxonni insofga chaqirishga urindi, ammo bu gal ham u Turon sultoni Amir Temurga kinoya va masxaraomuz javob qaytarib, ko'rmamaklik qildi.

1395-yil 14-aprelida ikki qo'shin Terek daryosi bo'yida yuzma-yuz keldi. Har ehtimolga qarshi, Amir Temur o'z qarorgohi oldida ikkita himoya chizig'ini barpo etishni lozim ko'rdi, ya'ni chuqur kovlanib, atrof mustahkamlandi. Har bir jangchining o'z marrasida turishi, kechasi olov yoqilmasligi, ovoz chiqarilmasligi ham qattiq tayinlandi.

Ertasi, 1395-yilning 15-aprelida ikki qo'shin ham harakatga keldi. Bu safar To'xtamishxon o'z sardorlari bo'lmish Kunchi o'g'lon, Bek Yorliq o'g'lon, Oqtov, Dovud so'fi va boshqa jangchilari bilan Turon qo'shinining

chap qanotiga zarba berishni ko'zlab, butun kuchini shu yerga jamladi. Bunda ko'zlangan maqsad shu ediki, hiyla bilan o'zlarini qochgan ko'rsatib, Turon qo'shinini bo'laklarga bo'lib tashlab, so'ng qattiq hujumga o'tib, Amir Temur qarorgohiga kelib, uni mahv etish kerak edi. To'xtamishxonning bu rejasi boshida ish berib, uning askarlari Amir Temurning qarorgohi oldida paydo bo'lib, uning hayotiga tahlika soldi. Nizomiddin Shomiyning guvohligiga ko'ra, agar shu orada Shayx Nuriddin hayotini xavf ostida qoldirgancha yordamga yetib kelmaganda, Amir Temurning kuni bitishi aniq edi.

HAR IKKI TARAF UCHUN HAM hayot-mamot kurashi boshlandi. Kuchlar teng emasdi. Agar turonliklar jilovni sal bo'sh qo'yganida edi, To'xtamishxonning qo'li baland kelib, g'alaba qilishi aniq edi. Ammo janglarda chiniqqan Turon bahodirlari, sheryurak jangchilari zumda dushmanni bir necha harbiy jang aravalarini qo'lga kiritib, o'zlarining shavkatli “otasi”, Turon sultoni Amir Temur qarorgohining oldida kuchli to'siq barpo eta oldi. Yordamchi kuchlar ham ularga madadga yetib keldi. Suvoriylari ham otlaridan tushib, jangga tashlandi.

Ammo baribir Amir Temurning ahvoli murakkabligicha qoldi. Chunki To'xtamishxonning lak-lak askarlari ketma-ket hujum uyushtirdi. Faqat Turon qo'shinining markazi yordamga kelgach, vaziyat biroz yumshadi, qolaversa Amir Temurning sara jangchilari dushman har qancha zo'r berib urinmasin, barcha qattiq hujumlarini bartaraf etishga kuch topa oldi. Ularning har biri qahramon edi. Har biri Amir Temurning jonini o'z joni, deb bilardi. Ayniqsa, chap qanotdagi qanbul yo'lbo'shchisi Xudoydod Husayn dushman qismlarini yorib kirib, To'xtamishxonning Oqtov qo'mondonligidagi qismning ortidan hujumga o'tib, uni parchalab, tumtaraqay qilib yubordi. Shu orada Amir Temurning nevarasi, mashhur qo'mondon Muhammad Sulton ham markaz qism bilan jangga kirdi va chap qanotni kuchaytirishga erishib, ulug' hukmdor bobosining jonini omon saqlab qoldi.

Turon qo'shinining o'ng qanot qanbuli hamon nochor ahvolda edi. To'xtamishxon qo'shini Hoji Sayfiddinning ortiga o'tib olib, unga tahdid solayotgan edi. Amir Temurning sara beklaridan biri Jahonshoh bahodir qahramonona jang qilib, Hoji Sayfiddin qo'shinining parokanda bo'lishiga yo'l qo'ymadi.

To'xtamishxon bu gal ham jangni boy berganini anglagach, tayoq yegan qashqirday, oldi-ortiga qaramay, butun qo'shini va boyliklarini tashlab, qochib qoldi.

TURON QO'SHINI G'ALABA QOZONDI

Amir Temur g'alaba sharafiga barcha beklarini, qo'shin boshliqlarini, jangda jonbozlik ko'rsatgan jangchilarini sa'y-harakatlariga yarasha munosib mukofotladi. Shayx Nuriddin tilla chopon, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan bebaho belbog', 100 ming kepakiy dinor pul hamda qimmatbaho uchqur, sara ot bilan siylandi. Jahonshoh bahodir, Muhammad Sulton va boshqalar ham qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan bu g'alabasi katta tarixiy ahamiyat kasb etdi: birinchi galda, Turon davlati uchun vayronkor kuch qudrati tamom sindirildi va qolaversa, rus davlati, knyazliklari mo'g'ul zulmidan uzil-kesil qutulib, turli soliqlardan ozod bo'lib, rivojlanish yo'liga kirdi.

AMMO SHUNISI HAM BORKI, 1405-yili Amir Temur Xitoy sari yo'lga chiqar ekan, jangdan qaytgach, yana To'xtamishxonni o'z taxtiga qaytarish haqida so'z yuritgan edi. Kim bilsin, balki, rostdir: uzoqni ko'ruvchi buyuk hukmdor sohibqiron Amir Temur kelajakda shimoldan o'z yurtiga biror boshqa balo-qazoning yopirilib kelishini sezganmikin?! Har holda, u zot bir nimani sezmaganda, bu gapni aytmagan bo'lardi.

To'liqin HAYIT, adib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi



Vatan manzumasi



VATAN BO'LMAS

Vatan oldida
hammaning o'z vazifasi
bor. Olim ilmi bilan,
dehqon hosili bilan,
kosib kasbi bilan tinchlik
va farovonlik uchun o'z
hissasini qo'shadi. "Vatan
manzumasi" dasturi esa
har sohada faoliyat olib
borayotgan harbiy-u
shoirlarni, san'atkor-u
olimlarni bir joyga yig'ib,
Vatan uchun xizmatga
chorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi
Mudofaa, Madaniyat vazirliklari,
Yozuvchilar uyushmasi, Respublika
Ma'naviyat va ma'rifat markazi va
boshqa tashkilotlar hamkorligida
tashkil etilgan adabiy-ma'rifiy
dastur Qurolli Kuchlar tizimida
olib borilayotgan yangicha
islohotlar tufayli yurtimizda
shakllangan "Xalq bilan armiya
– bir tan-u bir jon" degan ezgu
an'anani, ayniqsa ijodkorlar
va harbiy xizmatchilar orasida
yakdillikni yanada mustahkamlash,
yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va
milliy qadriyatlarimizga hurmat
ruhida tarbiyalashni maqsad qilib
olgan.

VATAN MANZUMASI ijodiy
safari va viloyatlar bo'ylab yo'l
olarkanman, yelkamda og'ir yuk
sezdim. Tanlanganlar safida
borligimdan bir muddat quvondim,
ammo bu safarda shunchaki
qo'shiq kuylab, she'r aytib kelish
emas, balki bizning yelkamizda
turgan vazifani xalqning oldida
to'la-to'kis bajarishdek mas'uliyat
ham bor edi.



Xalqimizga ma'naviyat ulashishdek
burchni shior qilib olgan yuz nafardan
ortiq jamoaning ham ko'nglidan
o'tdimikan meni qiynayotgan bu
savollar, asl vazifasi ne ekanini anglab
yo'lga tushdimikan safardoshlarim?
Aslida biz bu maqomga loyiqmizmi?
Ko'nglimni ming savollar iskanjasiga
tashlagancha olis qoraqalpoq diyori
tomon otlandik.

QORAQALPOG'ISTON
SAFARI

Olis safarlarning eng shukuhli
tomoni yo'lda kechayotgan
jarayonlardir. Poyezdda ketar
ekanmiz, san'atkorlarimizning shirali
ovozlaridan taralayotgan qo'shiqlarga
jo'r bo'lamiz, baxshilarning
olis moziydan kelayotgan
ohanglari yodimizga Alpomish-u
Go'ro'g'lilarning qahramonliklaridan
so'z aytadi. Shoirlarning yurt
kamoliga bitilgan she'rlaridan
bahramand bo'lib, olis yo'limiz qanday

yaqin bo'lib qolganini anglamasdan
Nukus shahriga kelib qo'nim topdik.

MA'RIFIY KECHANI O'zbekiston
Respublikasi madhiyasi ochib
berganidan so'ng tadbir kuy-qo'shiqlar,
ash'orlarga ulanib ketadi. Har bir
detalgacha nazarga olingan ushbu
dastur yurtimizning taniqli xonandalari,
aktyor, suxandonlari, shoir-u shoirlari,
harbiylaridan tashkil topgan bir guruh
iste'dodli yoshlar, ustozlar ishtirokida
o'zgacha harorat oladi.

O'z yurtini, elini sevish, ardoqlash
kabi baland hissiyotlarni qo'zg'ovchi,
alangalatuvchi, o'stiruvchi "Vatan
manzumasi" har kuni, har hududda
o'tkazilishi kerak ekan, degan
o'y-fikrlar o'tadi ko'ngillardan.
Quvonarlisi, zalni to'ldirib turgan
tomoshabinlar zarracha bo'lsa ham
zerikish hissini tuymadi, har bir sahna
ko'rinishini qarsaklar bilan kutib olib,
ishtirokchilar ko'ngliga ham zavq
ulashdi. Qoraqalpoq elining mehmur-
muhabbatidan mehmondo'stligidan
ko'nglimiz bir qadar ko'tarilib, qadim
Xorazm tomon yo'l olamiz.

XORAZM SAFARI

Tunning yarmida Xiva yaqinidagi
mehmonxonalardan biriga
joylashgandan so'ng tong otishini
intizorlik bilan kutamiz. Tezroq
kun yorishsa-yu, Xivani ziyorat
aylab, ko'nglimizni safar zavqi
bilan to'ldirsak, ulug'lar qadami
tekkan tuproqlar taftini his etsak,
degan niyatimiz ro'yobi bilan yuz
ko'rishishni intizorlik bilan kutamiz.

Negadir har gal Xorazmga
kelsam, yengil tortaman, qadim
minoralar qoshida so'zsiz soatlab
qolib ketaman. O'zim bilan suhbat
quraman, nimalarnidir qoralayman.
Necha asrlardan buyon o'zining
surat-u siyratini yo'qotmagan bu
ulug' qadamjolarga har kuni kelsam
ham, yangi hayrat-hayajonlar baxsh
etaveradi.

Vaqtimiz chegaralanganini
hisobga olib, ona diydoriga
to'ymagan boladay Urganch
san'at saroyiga yo'l olamiz.
Tadbir yakuniga yetadi, ma'rifiy



VATANDAN TASHQARIDA



kechaga kelgan tomoshabinlar qo'llarida gullar bilan yonimizga chiqadi, tadbir hayratlari bilan o'rtoqlashamiz. Suratlarga tushamiz. Imkoni bo'lsa-yu, yana bir necha kun shu dargohlar ziyoratida bo'lsak, degan tuyg'ularga quloq solmay, shu yerda yashovchi aholiga havas bilan Buxoro viloyati tomon yo'l olamiz.

BUXORO SAFARI

Viloyatlar bo'ylab safarlarimiz boshlangandan beri bir she'rni tilimdan tushirmayman:

*Vatan ichra safarlar ayla, ey do'st,
Vatan bo'lmas Vatandan tashqarida.*

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ushbu she'rini avval ham ko'p bor o'qiganman, go'yo safarimiz shu misralarning asl mohiyatini anglatish uchun ham uyushtirilgandek bo'laveradi menga.

Ba'zi insonlarning "Pul topgan yerim vatan", degan iddaolariga isyon sifatida yozilgan bu misralarni qoralaganda shoir qanchalar haq edi. Nahot har yerni vatan deyayotgan nodonlar yurtning qadrini shunchalar bilmasa, ota-bobolarining, o'zining kindik qoni to'kilgan yurt ne ekanini anglamasa, deya ichimda nimadir hayqiradi.

*Cho'g' deb ushlaganim yonar qurt ekan,
Zabardast bilganim joni mo'rt ekan.*

*Donoga har qarich tuproq muqaddas,
Nodonga pul topgan yeri yurt ekan,*

deya she'r qoralayman, go'yo shu she'r bilan o'zimni ovutgan bo'laman.

Mehmonxona oynasidan Buxoroning minorolari ko'rinib turibdi, ohista esayotgan shamol og'ushida tebrangacha ularga

uzoq termilaman. Moziydan xabar berayotgan bu ko'hna imoratlar kimligimni, aslimni eslatib turgandek go'yo.

IJODIY JAMOA bilan birgalikda konsert zaliga yo'l olamiz, yangi chehralar, o'zga hayratlar, bari-bari boshqa. Hattoki biz qayta-qayta takrorlab qo'yayotgan dasturimiz ham har safar boshqa ko'rinishda yuz ko'rsatadi. Qarsaklar jaranglaydi, ko'zlar yoshlanadi. Tadbir so'ngida bir yigit yonimga kelib, men ijro etgan she'rning haqiqatga qanchalar to'g'ri ekanini bo'yicha savol beradi.

"Mustaqillik yillarida qurbon bo'lgan o'g'lonlar..."
– Mustaqillik yillarida ham urush bo'lganmi, aka?

Shu daqiqada "Vatan manzumasi" dasturining asosiy maqsadi haqida tushunib qolaman. Xalqqa asl qahramonlarini tanitish ko'zda tutilgani, bu globallashuv zamonida har bir insonning qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otish kabi

buyuk g'oyalarga yo'g'rilganiga guvoh bo'laman.

Menga savol nazari bilan boqib turgan yigitga qahramon yigitlar haqida so'zlab beraman. Ko'zlari kosasida to'kilolmay yildirayotgan yoshlari bilan meni tinglaydi.

HAR BIRIMIZ VATAN TINCHLIGI YO'LIDA XIZMATKORLARMIZ. Shu yurtning tuprog'ini ko'z qorachig'imizdek asrash har birimizning burchimizdir. "Vatan manzumasi" dasturidan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri ham shu – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, yurtimiz sarhadlarini begona ko'zlardan asrashdek ulug' g'oyalar ko'zda tutilganidir.

Hali viloyatlar bo'ylab safarlarimiz davom etmoqda, men ham himmat qidirib yo'lga tushgan yo'lovchi singari o'zimning ko'rgan-kechirganlarimni sizga ham ilinib boraman.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"

“Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” tanloviga

VATAN

KATTA ODAM

yoxud ilk o‘zbek jurnalisti, jadid
Sobira Xoldorova marsiyasi
(esse)

Tag‘in o‘sha ayolni tushimda ko‘rdim. Menga u har gal turli shakl va o‘lchamda namoyon bo‘ladi. Bu safar azal-azaldan odamlar yashab kelgan va endi tashlab ketilgan uyga o‘xshab ko‘rindi. Uning derazasini xiragina yorib chiqib, zulmatga nayzasini qadab turadigan chiroq ham uning ko‘ksida allaqachon o‘chgan. Bu chiroqni o‘zi o‘chirdimi, yo boshqa birovmi – uni bilmayman, o‘ylaganim sari hammasi tunning bag‘ri kabi qorayib, mavhumlashib boryapti. Tun esa muazzam. Ana, qorong‘i ma‘voda yulduzlar mushakbozlik qilyapti. Sodiq qo‘riqchiday fonus ko‘tarib yurgan yonarqo‘ng‘iz yulduzlarni oralab yuribdi. Chigirtkalar go‘yo kecha qo‘ynidan sirli ohanglarni bir-bir terib olayotgandek uzib-uzib chirillayapti. Men ularni qayerdan bilyapman, ko‘rayotganim tushmi yo o‘ngimmi?

Shu payt davra aylanib o‘ynayotgan qizlar monand mening oldimdan to‘g‘ri abadiylik tomon o‘tib ketayotgan vaqt ilkidan varaqlari titilib ketgan sap-sariq daftar tushib qoladi. Qiziquvchan shamol ochishni istaydi-yu, iztirob siyohida bitilgan, achchiq qismlardan so‘z ochuvchi daftar haqiqatiga dosh berolmasligini tushunib, nari ketadi. Men esa aksincha, negadir yutoqib o‘qish uchun unga qo‘l uzatganim hamono daftardan quloqni batang qiluvchi shunday qichqiriq eshitiladiki, tushimning devorlari zirillab ketadi, so‘ng u ko‘pirib oqayotgan tim qora loyqa ostida bosilib, eshitilmay qoladi. Uning cho‘kib ketayotganini anglayman, bu g‘ussani qutqarib qolish uchun barmoqlarimni harflarga uzataman:

“1907 yilda Chust rayonining Chust qishlog‘ida tug‘ilgan, SSSR grajdani, partiyasiz, 1927-yildan 1937-yilgacha VKP(b) a‘zosi bo‘lgan va sinfiy hushyorligini yo‘qotgan hamda aksilinqilobiy unsur bilan aloqa bog‘lagani uchun partiyadan o‘chirilgan, qamalguniga qadar Toshkent shahar Kirov tumani partiya qo‘mitasi

kotibi bo‘lgan Sobira Xoldorova O‘zbek SSSR Jinoyat Majmuasining 63 va 67-moddalari bo‘yicha aybdor sanaladi.

Ushbu ishni ko‘rish uchun SSSR NKVD huzuridagi Alohida Majlisga yo‘llansin”.

Sahifa so‘ngida yana shunday yozuv bor:

Ma‘lumotnoma
“Ayblanuvchi Xoldorova 1937-yilning 22-sentabridan boshlab qamoqda. Ichki ishlar xalq komissarligi SIZOsida saqlanmoqda. Ish bo‘yicha ashyoviy dalillar yo‘q.

NKVDDHB shoshilinch ishlar bo‘yicha vakili”.

Sobira... Yodimning eng chuqur kavaklarida qad rostlagan birinchi o‘zbek jurnalist ayoli. Yurtimizda xotin-qizlar matbuotining vujudga kelishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan Sobira Xoldorova bosib o‘tgan hayot yo‘li, uning achchiq qismati har sahifani varaqlaganim sayin butun chalkashliklari bilan ko‘z o‘ngimdan bir-bir o‘ta boshlaydi. Qatag‘onga uchragan ayolning iztiroblari salqi qovoqlarimga inadi, ko‘zlarimni achitadi, ammo baribir o‘qishdan to‘xtamayman.

Mana, uning tergov anketasi. Men undan Sobira Xoldorovaning 1907-yili Chustda kambag‘al dehqon oilasida dunyoga kelgani, 1921-yilgacha, ya‘ni o‘n to‘rt yoshga to‘lgunga qadar internatda tarbiyalangani, o‘qigani, Moskvada jurnalistika sohasida ta‘lim olgani, kommunistik partiya safiga kirganini bilib olaman. “Yangi yo‘l” jurnaliga birinchi muharrirlik qilgan Sobiraning oilasida 12 yoshli o‘g‘li Po‘lat va 5 yashar qizi Manzura, qari onasi Komila bor. Eri Mo‘min Usmonov aksilinqilobchi sanalib, undan xiyol oldinroq qamoqqa olingan.

Sobira Xoldorova va Mo‘min Usmonovning ikki bolasi yetimxonaga jo‘natiladi. Er-xotinga tegishli mulk har biriniki alohida-alohida xatga olinib, onasi bilan bolalarining kiyim-boshi, ko‘rpa-yostig‘i-yu go‘shiqiyimalagichdan tortib qoshiqqacha musodara qilinadi. Birgina ayolga tasavvurga sig‘mas darajada zug‘um o‘tkazishga majbur qilgan sabab nima edi? Uning aybi bormidi o‘zi?

Keyingi varaqni ochaman. Unda O‘zSSR Ichki ishlar xalq



komissarligining Xoldorovaga e‘lon qilgan 1936-yilning 26-martidagi qarori keltirilgan:

“Tergov Sobira Xoldorovaning O‘zbekistonda barbod etilgan aksilsho‘roviy o‘ng troskiychi tashkilot a‘zosi bo‘lganini aniqladi. U O‘zbekiston K(b)P Markaziy Qo‘mitasining sobiq sarkotibi, hozirga kelib otib yuborilgan xalq dushmani Akmal Ikromov rahbarligidagi aksilsho‘roviy millatchi, o‘ng troskiychi tashkilotga a‘zo bo‘lgan. Shu uyushma topshirig‘iga ko‘ra, g‘oyaviy frontda zararkunandalik qilgan. Marksizm-leninizm klassiklari asarlarining o‘zbek tiliga nashr etilishiga zarar yetkazish niyatida Xoldorova 1932–1934-yillarda eri Usmonov bilan birgalikda o‘rtoq Stalinning “Leninizm masalalari” asarini buzib tarjima qilgan va 30 000 nusxada chop etgan. Oxir-oqibatda siyosiy xatolari tufayli bu kitob savdo tashkilotlaridan yig‘ishtirib olingan va natijada davlatga 144 782 so‘m 82 tiyin ziyon yetkazilgan...”

Bu orada Sobira Xoldorovaning “jinoiy ish”i ko‘rilmay, u turmada azob chekib yotadi. Ko‘zim oldida zax, qo‘lansa hidga to‘yingan to‘rt sovuq devor ichida titrab-qaqshab yotgan Sobira tasviri gavdalangach, oyog‘imga minglab chumoli o‘rmalagandek seskanib ketaman. Keyingi betga o‘tishga majolim qolmaydi, ammo haqiqatni bilishim shart, chekkan g‘ussalari haqqi, bilishim zarur.

Mana, Komila opa Ichki ishlar xalq komissari Sadjayaga 1939-yil 15-dekabrda yo‘llangan arizasida qizining Toshkent turmasida yotgani, ikki yildan ortiq tergov qilinyotgani, ammo tergov yakunidan darak yo‘qligini, qizi aybdor bo‘lsa, tergovni tezlatib, sud qilishlarini yolvorib so‘ragan. Bir xil yo‘sinda azoblayverib zerikkan tergovchilar nihoyat so‘nggi



hukmga ruxsat beradi – Sobira Xoldorova 1940-yilda SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Alohida Majlisi qarori bilan 5 yil muddatga Yoqutistonga badarg'a qilinadi. Sobira muddatidan oldin, ya'ni 1942-yili qaytib kelganidan keyin ham uni tinch qo'yishmaydi. 1949-yil mayida u yana Toshkentdan besabab surgun qilinadi. Tag'in ruhiy xastalar shifoxonasiga tushadi va uch oy davolanadi. Lekin hali shifo topib ulgurmasidan Toshkentdan 50 kilometr nariga jo'natiladi.

– Tergovchi?

– Qovoqlari soliq, soqoli qirilgan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, qarimsiq yuziga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Nafrat bilan qarardi. Mazax qilib rohatlanardi. Kishini bo'g'ib, holsiz qilib qo'yadigan bu adovat menga o'shanda uning butun tanasidan, butun vujudidan, qoqshol bo'lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi la'natlangan qo'rg'on kabi nurab yotgan umr qal'asidan ufurayotgandek tuyulgandi.

– Hid?

– Tergovchidagimi? Unga qarab turib doimo dud hidini tuyardim: balkim, menga shunday tuyulgandir, ammo bu oddiy tutunning hidi emasdi, men bunday achimsiq hidni ko'p yillar avval qishlog'imizdagi ovchilarning qurum bosgan miltig'ida his etgan edim va tergovchidagi hid haqiqatan ham hozirgina portlagan o'q hidiga o'xshardi: ehtimol, bu hid mening dimog'imda mamlakat aql bovar qilmas xiyonat va sotqinlikdan so'ng vayron etilgan, deb o'ylay boshlaganimdan keyin paydo bo'lgandir?

– Umid?

– Umid... Ichimdagi xarobalar ichra kulga botgan uvada xarsanglar ortida ko'zga zo'rg'a tashlanar-tashlanmas bo'lib shuncha yong'in-u alg'ov-dalg'ovdan so'ng ham hali bus-butunligicha to'xtab qolgan tegirmon parragi ko'rinardi: parrak hali mustahkam edi. Tegirmonning eshigi, yon devori qulab tushgan bo'lsa-da, men qamoqxona bo'ylab kezarkanman, daf'atan to'xtar va birdan tegirmon parragini aylantirib yuborishni, ichimdagi yurtga oz bo'lsa-da hayot bag'ishlashni juda ham istab qolardim. Menimcha... shu parrak umidim edi!

Sobira o'zining nohaq mahkum etilganini aytib, oqlashlarini so'rab 1943-yildan to 1949-yilgacha SSSR Oliy Soveti va SSSR Ichki ishlar xalq komissarligiga bir necha bor ariza yozdi. Tabiiyki, arizalari javobsiz qoldi. Faqatgina oradan yetti-sakkiz yil o'tgach, haqiqat qaror topdi – 1956-yilning 22-iyunida Turkiston harbiy okrugining harbiy tribunali Sobira Xoldorovaning ishini qayta ko'rib chiqdi. Podpolkovnik Guskov raisligida adliya podpolkovniklari Sherbakov va Ivanov a'zolidagi ajrim chiqardi. Ajrimda shunday so'zlar bitildi:

“...Xoldorova ishi bo'yicha tergov xolis olib borilmagan, qonunga xilof ravishda ayblashga urinilgan. Xoldorova hibsga olingandan so'ng oradan o'n yetti oy o'tgandan keyingina unga aybnoma e'lon qilingan”.

Bu gal tergovchilar salaflari e'tibor qilmagan ko'rsatmalarni inobatga oladi. Kech bo'lsa-da, insof kiribdi, deb o'zimni ovutgandek bo'laman. Keyingi sahifaga o'taman. Keyingi sahifada bunga boz to'xtalishadi:

“Dastlabki tergovda Xoldorova o'zining aksilsho'roviy millatchilik tashkilotiga a'zolidagi qat'iyat rad etib, o'zini faqat Stalinning “Leninizm masalalari” kitobini o'zbek tilida xatolar bilan chop etishda aybdorligini tan oladi. KPSS Markaziy Qo'mitasi kotibiga yozgan shikoyatida ham, 1956-yil martidagi tergovda ham Xoldorova aksilinqilobiy faoliyatidagi aybni qat'iyat rad etgan...”

Ana shu va boshqa qator holatlardan kelib chiqib, SSSR NKVD huzuridagi Alohida Majlisning 1940-yil 5-dekabrda Sobira Xoldorovaga doir qarori bekor qilinadi. Ha, bekor qilinadi. Ammo muborak adolatning qaror topishi o'n to'qqiz yilga kechikkan edi. Sobiraning o'n to'qqiz yillik hayoti hasratda o'tdi. Bu azob-uqubatlar esa, asoratsiz ketmagan edi. 1940-yil 5-dekabrda qarorning bekor qilingani haqidagi ma'lumotnomani Sobiraga yo'llaganlarida u qattiq betob edi.

1956-yilning 30-iyun kuni bu hujjatni uning o'g'li Po'lat imzo chekib oladi, hujjatning boshqa bir nusxasi orqasiga esa katta leytenant o'g'lining aytishiga ko'ra, S. Xoldorova 1956-yilning 20-mayidan shu kunga qadar Toshkentdagi ruhiy shifoxonada davolanyapti, deb yozib qo'yadi.

Ana shu bir parcha xatda do'zax azobini tortgan ayolning mashaqqatli taqdiri va aldovlar,

ikkiyuzlamachiliklar, fitnalardan tolgan horg'in hayoti yotibdi. Bu hayotning purg'ussa tasvirlarini qanchalik ko'z oldimizga keltirishga urinmaylik, u chekkan azobning mingdan bir bo'lagini ham his qilishga yuragimiz dosh berolmasligi aniq.

Sobira o'ttiz yoshida qamoqqa olindi. Uning navqiron umri bekordan bekorga mustabid tuzumning yerusti zindonlarida o'tdi. Vujudidagi hayot belgilarini sassiq qamoqxonalarning to'kik devorlari yutdi. Ko'zlaridagi nurni tuzumning yulduzsiz tunlari simirdi. U qop-qora chilvir sochlarini g'am daryosida yuvishga majbur bo'ldi.

Halol kishi ham ortiga boqib, goh tahlikaga tushadi, qancha oqil bo'lsa, shuncha zimmasiga mas'uliyat yuklaydi, o'ziga talabi haddidan yuqori bo'ladi. U qayta-qayta ikki tushuncha, to'g'rirog'i, ikki hayot tarzida, gunoh va savob oralig'ida shaxsning, insoniylikning, musulmonlikning mohiyatini ko'radi. Men ham ko'rmoqchi edim, ammo ulgurmadim. Hafsalamni, e'timodimni o'ldirishdi.

Axir qachonlardir men uchun ham vaqt, farq, dard... mavjud edi: kemptiklikdan o'zimni qo'yarga na zamon va na makon topa bilardim. Endi esa hech nima yo'q. Faqat o'sha yo'qlikdan meros qolgan soya, so'qir tabassum, mo'ltiroq nigoh, kimgaligi noayon gina bor: tergov xonasi devorida muzlagan o'tmish...

Mana, hozir o'mimdan turaman-u, bir lahza ham ko'z oldimdan nari jilmaydigan o'sha bedil devor chuqurlariga muhrlangan mungli



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

kechamni o'sha o'zim tubida so'nib borayotgan yagona cho'g'dan yaralajak gulxanda hech qachon, hech qayerda, hech nimadan na xavotirlanib, na halovatlanib, na afsuslanib yo'nilgan kosov bilan kovlab-kovlab yoqib yuboraman...

Chin anglam izhor va iqrordan tug'iladi. Tushunish va tushuntirishdan ko'ngillarning basirat ko'zini ochadi. Shaxs o'zini erkinlikda tugal tiklaganidek, bor haqiqat hurlikda o'ziga yo'l topadi. Sobiraning baxti – u bolaligida shuuriga quyilgan ulug' kalomlar havosini simirib, qadriyatlar nimaligini bilganidadir. Nachoraki, jurnalist ular taqiqlangan tuzumda yosh umrini kechirdi. Saodati – bir umr ezgulikni bayroq qilib, hayoti shomida istiqloлга yeta olmagan bo'lsa-da, izhorga ham, iqrorga ham ulgurgani bo'ldi.

Nonning haqiqiy ta'mini och qolgan biladi, deb marhamat qiladi Jaloliddin Rumi. Sobira ham salkam sakson yil istiqloлга zoriqdi, uning ziloliga tashna bo'ldi. Shuning uchun u chekkan zahmatlarning zalvori, quvonchi va hayratini, ishonib-ishonolmay turgan holatini, muqaddas huquqqa yetilgandagi hayajonini xayolan tasavvur qilib bo'lmaydi.

Qahratonning qari qizdek mumsik, ko'rbigiz ayozida, butun vujudini chimchilayotgan izg'iringa parvo qilmay, bir ayol bormoqda. Yo'lida uchragan har neki bor – hayrat bilan tikiladi. Ayozni qarsillatib qayoqqa ketyapti bu ayol? Yo'l yurgan sovg'otmaydi. Buni yo'lchi biladi. Bilgani sari jadallaydi. Maqsad bor, manzil bor, lekin qachon yetib boradi, manzilgacha umri yetarmikin? Hozir buni o'ylagani yo'q. Bir qadam bo'lsa ham yurib qolgani unga kuch beradi. Muhimi, yurish kerak. Egri yupun. Qor odamdek ko'rinadi olisdan: oppoq. Ortidan yuguray deyman, ammo yo'llarga oyog'im bardosh bermaydi. Hech yo'q ismini aytib chaqiray deb bir muddat kalovlanib qolaman. Ismi nima edi? Esladim. Ikki kaftimni og'zimga karnay qilib qichqiraman:

– Vataa! Ona Vataa!..

Rahmatli enam mustaqillikni birinchi bor eshitganimda kattaroq odam bo'lsa kerak-da, deb o'ylagandim, deganida miriqib kulgandim. Endi bilsam, u adashmagan ekan. Mustaqillik chindan odam, buyuk odam...

Ey, sen mening buyuklarimni quvonchdan yig'latgan kun. Ey sen, men suyang'anlarim senga suyanib, sening kelishingni sevinchning issiq yoshlari bilan kutib olgan ulug' sana. Sen kelgach, shu zaminga tomir tashladim, mangu ildizlarimga tutashdim va bugun ular bilan tillashishdek baxtga muyassar bo'ldim. Men senga topinaman! Saratonda sovg'otgan, qahratonning qahriga qaram bo'lmagan bahodir bobolarim, jadid momolarim, Maryam-u Sobiraxonlarim haqqi, nimjon musicha bolasi uchun qilgan jasorati haqqi, neki ongsiz mavjudotlar o'z go'shasi uchun kurashganlari haqqi, enamning seni yanglish tushungani haqqi, endi doimo mangu bo'l, mangu bo'!

Azizbek YUSUPOV,
jurnalist

Chegara qo'shinlarida

Vatanparvarlik EZGU FAZILAT

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni barkamol va yetuk avlodlar sifatida kamolga yetishlarini ta'minlash maqsadida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Xususan, mustaqilligimizning 34 yilligi hamda "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida yurtimizning turli hududlarida ertamiz egalari bilan keng qamrovli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi yoshlar kutubxonasida "Kitob marafoni" loyihasi asosida tashkil etilib, unda tuman yoshlari, taniqli ijodkorlar hamda Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiylari ishtirok etdi.

"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostidagi "Umummilliy birdamlik" festivali doirasida o'tkazilgan ushbu marafon davomida, taniqli yozuvchi va shoirlarning kitoblari ko'rgazmasi tashkil etilib, ulardan olingan badiiy parchalar, she'riy satrlardan namunalar o'qildi. El suygan san'atkorlar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar esa barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Tadbir davomida eng faol yoshlarga, shuningdek kutubxona fondi uchun kitoblar jamlanmasi sovg'a qilindi.

Kelajagimiz bunyodkorlarining ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilgan tadbirlardan yana biri Jizzax viloyatining Baxmal tumanida ham tashkil etilib, unda Fidokor mahallasi yoshlari va sarhadlarimiz posbonlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. "Vatanparvarlik ezgu fazilat!" shiori ostida tashkil etilgan mazkur tadbir dastlab, qurol-aslaha va harbiy texnikalar namoyishidan boshlanib, vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlar ijro etilgan konsert dasturiga ulanib ketdi.

– Bugungi kun men uchun juda qiziqarli o'tdi. Haqiqiy avtomatni ushlab ko'rdim. Katta bo'lsam, albatta, harbiy akalarim kabi Vatanimni qo'riqlayman! Onam doim: "Men senga ishonaman, o'g'lim!" deydi. Men hali kichkinaman, maktabda o'qiyman. Lekin katta bo'lsam, albatta, onamni xursand qiladigan, singillarimni himoya qiladigan aka bo'laman, – deydi Kamronbek Murodov.

Shu kuni Kamronbek singari qalbida o'z yaqinlari va yurtiga cheksiz muhabbat tuyg'ularini jo etgan ko'plab yoshlar hamda mahalla aholisi vatanparvarlik degan buyuk tuyg'u atrofida birlashdi.

Qo'qon shahridagi DXX Chegara qo'shinlariga qarashli bo'linma harbiylari ham "Rishton" bolalar oromgohida bo'ldi. Oromgoh kutubxonasida o'tkazilgan suhbat davomida bolajonlar harbiylik haqida o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga javob oldi. Tashkil etilgan stol tennisi, shaxmat-shashka va "Kim chaqqon" kabi sport musobaqalarida o'zaro kuch sinashib, yurt himoyachilariga aqliy salohiyatlari va jismoniy imkoniyatlarini namoyon etdi.

Albatta, sarhadlarimiz posbonlari tomonidan respublikamiz bo'ylab chegaraoldi hududlaridagi yoshlar ishtirokida o'tkazilayotgan shu kabi tadbirlar tobora taraqqiy etib borayotgan Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqonlarini yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan ulg'ayishlarini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Ijtimoiy himoya



SOG'LOM KELAJAK UCHUN!

Bugun respublikamizning eng olis hududlarida joylashgan harbiy qism harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, davlatimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan Mudofaa va Sog'liqni saqlash vazirliklari bilan hamkorlikda Andijon viloyati Xonobod tumanida joylashgan harbiy qismda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi. Ko'rik davomida umumiy qon tahlili, UZD va EKG tekshiruvlari ham o'tkazildi.

Shu kuni ko'rikka kelganlar uchun Mudofaa vazirligining Call markazi amaliy psixolog mutaxassislar tomonidan suhbatlar ham olib borildi.

Tibbiy ko'rik davomida jami 128 nafar harbiy xizmatchi va ularning oila a'zolari tekshiruvdan o'tkazilib, mutaxassislar tomonidan qo'shimcha tavsiyalar berildi.

TOQQQ matbuot xizmati

Muloqot

HUSHYORLIK VA OGOHLIK ZARUR



Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamonda yangi ko'rinishdagi jinoyatlar avj olaypti. Shu bois bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lish zaruratini davrning o'zi taqozo qilmoqda. Aks holda jamiyatda o'nglab bo'lmas, taraqqiyotdan ortda qolishiga sabab bo'ladigan ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy muammolar kelib chiqishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar o'rtasida shunday ko'ngilsizliklarning oldini olish maqsadida Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirga Respublika Harbiy prokuraturasi, Toshkent garnizoni harbiy avtomobil nazorati, Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, Xalqaro islom akademiyasi va huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari taklif qilindi.

Videoselektor shaklida o'tkazilgan tadbir davomida so'zga chiqqanlar, zamonaviy tahdidlar va jinoyatchilikning

yangi ko'rinishlari haqida atroflicha to'xtalib, jinoyatning oldini olish – bu faqat jazo bilan emas, balki ongni tozalash, ma'rifat va tarbiya orqali amalga oshiriladigan uzluksiz jarayon ekanini ta'kidladi.

Muhimi, tadbir davomida aytilgan har bir fikr, keltirilgan hayotiy misollar va amaliy tavsiyalar harbiy xizmatchilar uchun nafaqat nazariy, balki hayotiy qo'llanma bo'ldi.

Shu kuni tadbir ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollariga ham soha mutaxassislaridan batafsil javob oldi.

Kapitan A. SAFARALIYEV

Inson qadri uchun

MUROJAATLAR YECHIM TOPMOQDA

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Qurolli Kuchlar vazirligi va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda olis hududlarda ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Ularining navbatdagisi Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida tashkil etildi. Unda 200 ga yaqin harbiy xizmatchi va xodim, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar ishtirok etdi.

Dastlab ochiq muloqot o'tkazilib, yurtimizda inson qadri uchun olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va ularning samarasi, odamlar og'irini yengil qilish bugun har bir davlat organining asosiy vazifasi ekani,

harbiylar hamda ularning oila a'zolari uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar haqida so'z bordi.

So'ngra qator soha mutaxassislari qatnashuvida murojaatlar tinglanib, ularni joyida hal etishning amaliy choralarini ko'rildi.

Jumladan, harbiy xizmatchilar turmush o'rtoqlarining ishga joylashish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish, bu borada kredit ajratish, tikuv mashinasi va boshqa zarur uskuna-jihozlar olish kabi ijtimoiy masalalardagi qator murojaatlari ijobiy hal etildi.

Shunday qilib, kelib tushgan jami 48 ta murojaatdan 13 tasi joyida qanoatlantirildi, 21 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, ko'rib chiqish muddat talab etadigan 14 ta murojaat ijrosi nazoratga olindi.

**Adliya podpolkovnigi
Gulchehraxon TURSUNOVA,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
katta yordamchisi**

Jarayon

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev tomonidan mudofaa vazirining o'rinbosari H. Qarshiyev va favqulodda vaziyatlar vazirining o'rinbosari N. Kadirov ishtirokida Sirdaryo viloyatida o'rganishlar olib borildi.

SHAROITLAR O'RGANILDI

Xususan, harbiy shaharchalardan birida yaratilgan sharoitlar, harbiy xizmatchilar farzandlarining bo'sh vaqtini maqsadli tashkil etishga doir qulayliklar, kutubxona, turli mashg'ulot va to'garak xonalari o'rganilib, jarayonda harbiylarning oila a'zolari bilan ochiq muloqot o'tkazildi.

O'rganishlar viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi "Sirdaryo IES" AJ obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limida davom etib, unda navbatchi guruhlar va texnikalar shayligiga e'tibor qaratildi.

Mudofaa vazirligiga qarashli qator harbiy qismlarda esa xizmatni o'tash va ta'minot turlari ahvoli, amaliy mashg'ulotlar jarayoni va faoliyatga doir boshqa masalalarga ahamiyat berildi.

Yuqori natijalar ko'rsatib kelayotgan muddatli harbiy xizmatchilar rag'batlantirildi.

O'rganilgan obyektlarda korrupsiyaning oldini olish borasidagi chora-tadbirlarga alohida urg'u berildi va yakunida mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

**Adliya polkovnigi Sherzod SAIDOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining katta yordamchisi**

Askarlik hikoyalari

SIRDARYO O'LANI

Qo'ldosh degan alomat akaxonim bor. Qiziq odam, gurungboz. Kishti kelsa, davralarda boshidan o'tgan g'aroyib voqealarni o'ziga xos ohangda aytib yuradi. Men esa bu hangomalarni ko'p eshitganman. Ammo har gal o'zimni xuddi birinchi bor tinglayotgandek tutib, qiziq joyiga kelganda "voh" deyman, "yo'g'-a", deb hayratlanaman.

Bundan akamiz zavqlanib, junbishga keladi, hatto yangi tafsilotlarni ozgina qo'shib ham yuboradi. Keling, ularni bir eshitib ko'raylik.

BUZOQNI YUTGAN BALIQ

Sirdaryoni ko'rganmisiz, yo'qmi, mana biz ko'rganmiz, ikki yil Orolga qo'yilish joyida olti askarga bosh bo'lib baliq tutganman. Ko'chma vagonda yashardik. Uch yuz metrli to'rni har ikki kunda tortardik, ushlangan baliqlarni tuzlab, bochkaga bosardik. Harbiy qismdan praporshik Ivanov har haftada mashinada bizlarga oziq-ovqat, xatlar olib kelar, bochkadagi baliqlarni olib ketardi.

May oyining oxirlarida yuqoridan "Tarvuz ekilsin", degan buyruq keldi. Otamga "Tarvuz urug'idan jo'nating", deb xat yozdim.

Hafta o'tib urug' solingan posilka keldi. "Axir qishloqda o'sgan, Kenja traktorchining o'g'li bo'lsam", deb traktorni yurgizib, shudgorni o'zim haydadim. So'ngra urug'larni qadadik. O'n kunlar o'tib, urug' unib chiqdi. Bizga qo'shni gektarichilar – koreys Kim, qozoq Quvonchbek va turk Aslanning tarvuz palaklari esa allaqachon gullay boshlagandi. Askar yigitlar turli millatga mansub bo'lib, eng yoshi kattasi men edim. Qolaversa, shahardagi oliygohning kechki bo'limida o'qiyotgan talaba, yana jussam ham binoyidek edi-da...

Bir kuni odatdagidek daryodan to'rni tortdik, ishonasizmi, uzunligi naq ikki metr keladigan baliq ilindi. Temir kosov bilan urib, hushidan ketkazdik. Hatto ustiga yettovlon minib, suratga

ham tushdik. Baliqni ustuxonidan ajratib, nimtalarni chaylaga osib qo'ydik.

Bilasiz, qozoq xalqi chorvador. Bir kuni paykal oralab yursam, semizgina buzoz palakni yeb yuribdi. Achchig'im keldi, qayishimni yechib bo'ynidan o'tqazdim-da, vagon qoshiga sudrab kelib, turkman Berdiqu'lga "So'yib tashla", deb buyurdim. Yigitlar bir pasda buzoqni so'yib, to'rt-besh kilo go'shtini qovurishdi. Buzoqning go'shti mazali bo'larkan. Ertasiga eshak mingan qozoq chol vagonimizga kelib: "Buzog'imni topinglar, bo'lmasa, militsaga beraman", deb dag'dag'a qildi. Yigitlar menga qarashdi. Men esa bamaylixotir borib, chol bilan ko'rishdim va rostdan ham kecha buzog'i daryo tarafga o'tgani, keyin suv ichayotganda kattakon baliq uni yamlab yutib yuborganini aytdim. Chol menga ajablanib qaradi. Men qariyaga daryo bo'yida yotgan baliqning suyaklari va qo'rqinchli tishini ko'rsatdim. So'ngra qamishzor ichidan buzoqning dumini topib keldim.

– Biz baliqni tutganimizda buzoqning dumi og'zidan chiqib turgan ekan, – dedim.

Chol so'zlarimga ishonadi.
– Voy, chirog'im, yoshim yetmishga kirib, laqaning buzoqni yutganini eshitmagandim...

Cholni chaylaga taklif etib, baliq va buzoz go'shti aralashgan qovurma bilan mehmon qildim.

Qariya ketdi, uning mollari qayta biz tarafga kelmay qo'ydi.

DARYODA OQQANIM

O'zlarimga ma'lum, harbiyga ketmasdan avval uylangan edim. Og'aynilar, uyli odamning olisga ketmagani ma'qul. Ayniqsa, uyda seni oydek xotining ko'zi to'rt bo'lib kutsa, yomon bo'larkan.

Kechalari Oysuluv boshimdan ketmasdi, sog'inardim, qo'msardim, ammo ilojsiz edim.

Bir kuni yigitlar bilan daryodan narigi qirg'oqqa suzib o'tishga qaror qildik. Ular birin-ketin suzib o'tishdi, oxiri men qoldim. To'g'ri, bolaligimda ariqlarda, kanallarda cho'milganman, ammo daryoda suzib ko'rmagandim. Sal beriroqqa keldim-da, tavakkal deb daryoga o'zimni otdim. Amallab daryoning yarmidan o'tdim, bor kuchim bilan sohil tarafga intilaverdim. Qirg'oqqa ozgina qolganda madorim quridi, qo'l-oyog'im harakatsiz qoldi. Ilojsiz edim, xayolimda esa: "Men o'lsam, Oysuluv kinga tegarkin?" degan o'y charx urardi. Daryo tubiga cho'kdim, ishonasizmi, shunda vujudimga bir kuch keldi, bir dov keldi, yuqoriga intildim, tepamda osmon ko'rindi. Nimadir oyog'imdan ko'tardi, bir necha soniya shu asnoda muallaq turdim, tin oldim va qulochimni bir ikki sermadim, oyog'im

yerga tegdi, amallab qirg'oqqa chiqdim va o'zimni qumloqqa otdim. Qancha yotdim bilmayman, ko'zimni ochib yigitlarni axtardim. Ular hech narsadan bexabar bir-birlari bilan kurash tushardi.

Hozir ham o'ylayman, meni o'lim girdobidan nima qutqargandi o'shanda? Qizg'anishmi, rashkmi yoki sevgi, sog'inchmi? Balki yashashga bo'lgan ishtiyoq, muhabbatdir...

IKKI O'T ORASI

Yozning o'rtalarida qo'shnilarning tarvuzi qizarib, pishiqchilik boshlandi. Ammo bizning paykaldagi tarvuzlar garchi chelakdek dumalab yotsa-da, hali qizarmagan, kechki edi. Bir kuni qo'shnimiz Quvonchbek yonimga kelib iltimos qildi.

– Qo'ldosh oshna, bir mashina tarvuzni shaharga olib ketyapman, ertaga kechqurun qaytaman. Xotinim Nurjon yolg'iz, biznikida bo'lib tur, boshqa ishonadigan odamim yo'q, ayniqsa Aslan xavfli, ichib yuradi.

Men unga: "Bir kecha ming kecha emas-ku", deb rozi bo'ldim.

Kechga tortib, ularning chaylasiga bordim. Nurjon meni kulimsirab kutib oldi.

– Oxiri oshnangiz sizni topibdi-da, poyloqchilik qilishga, nima, men shunchalar suluvmanmi, Qo'ldoshbey?
– Ha, juda chiroylisiz, – dedim kelinchakni maqtab.

Darhaqiqat, Nurjon oydek suluv, go'zal edi. Ikkalamiz supada o'tirib, choy ichdik.

Daryodan shamol esib turar, sutdek oydin kecha edi.

Nurjon meni savolga tutdi:

– Qishloqdagi yangamizni sog'indingizmi?

Men bosh qimirlatdim.

– Bilasizmi, nega sizni Quvonchbek qo'riqchi etib tanladi?

– Yo'q.

– Chunki siz yaxshisiz, u sizga ishonadi, yaqinda Mirtemir degan oqinning she'rini o'qib qoldim:

*Yangajon, dedim,
Qaynimov, dedi.
Yaqinroq, dedim,
Aynim-ov, dedi.*

Nurjon she'rni chiroyli o'qidi.

So'ngra chaylaga kirib, ko'rpa-ko'rpacha, yostiqlik olib kelib joy solib berdi.

– Ana endi bemalol o'sha suluvingizni tush ko'rib uxlayvering... u chaylaga kirib ketdi. Keyin esa ichkaridan kelinchakning ohista aytayotgan o'lani eshitildi.

Uyqum qochib, xayollarga oshno bo'ldim, qancha yotdim, bilmadim, bir payt sharpa ko'rindi, qaradim, u Nurjon edi. U ohista kelib, ko'rpamni to'g'riladi va mening oyoq uchimdan ko'rpa ichiga kirib, tinchgina uyquga ketdi.

Menda uyqu qayoqda deysiz. Axir shunday ofatijon yoningda yotsa, uyqu keladimi, ayting?!

– Ay, Quvonchbek, meni qanday azobga tashlab ketding?

Ikki o't orasida tonggacha qovurilib, olishib chiqdim. Oxiri uxlab qolibman.

– Turing, siz qanday uyquchi poyloqchisiz, kecha qo'yingizga birov kiruvdi, bilmadingizmi? – dedi Nurjon jilmayib.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Men kelinchak bilan xayrlashib, jo'nab ketdim. Kechqurun Quvonchbek kelib, menga rahmat aytdi.

– Ayoling oqila ekan, uni asra! – dedim, xolos.

SOG'INCH

O'tgan asrning oltmishinchi yillari o'rtalarida ummon ortidagi Kuba degan mamlakatda harbiy xizmatda bo'lgan Bayman muallimning bir suhbatini hech yodimdan chiqmaydi.

– Sog'inch degani yomon bo'larkan, bekorga Bobur, Furqat kabi ulug'larimiz Vatanni qo'msab, dardli misralar bitmagan ekan, – degandi muallim.

– O'shanda "dembel" bo'lishimga ikki oy qolgandi, tishim og'rib, harbiy gospitalga bordim. Vaqtliroq boribman chog'i, tish do'xtirning xonasi berk ekan. Hovliga chiqdim. Ikkita bug'doy rangli qizaloq quvlashmachoq o'ynar, ularning nimasidir qishloqdagi singillarimni eslatardi. "Tavba, kubaliklar ham o'zimizga o'xshar ekanda", dedim o'zimcha. To'satdan qizaloqlardan biri:

– Rayhon, meni tutolmaysan! – deb qoldi.

Quloqlarimga ishonmadim, karaxt bo'lib qoldim. Axir bir yarim yildan buyon o'zbekcha so'z eshitmagan edim-da!

Ularning yoniga borib ismlarini so'radim.

Qizaloqlar menga hayron qarashdi va kattarog'i aytdi:

– Mening ismim – Lola, ukamniki – Rayhon.

Ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi.

– Siz ham o'zbekmisiz, amaki?

– Ha, – deb bosh iring'adim.

Qizaloqlarni quchoqimga bosdim!

– Enajonlarim!

Tuni bilan azoblab chiqqan tishim ham og'rimay qo'ydi.

– Dadam do'xtir, biz yaqinda Toshkandan keldik.

– Yaxshi.

– Oyim ham do'xtir, – dedi Rayhon degani shirin til bilan.

– Tillaringdan aylanay!

Shu payt "Qizlar, kelinglar!" degan ovoz eshitildi. Eshik yonida oq xalat kiygan, qosh-ko'zlari Sanam yangamga o'xshab ketadigan ayol turardi. Ayol meni ko'rib, hol-ahvol so'rashdi. Garnizonda osiyolik yagona askar ekanimni aytdim.

Og'rigan tishimni sug'urtirib tashqariga chiqsam, qizaloqlar, oyisi, dadasi bilan meni kutib turishgan ekan. Bir soat uyda mehmon bo'ldim. Qaytar chog'da ayol qo'limga ikkita o'zbeki non tutdi.

Nonni bag'rimga bosdim, undan ona yurt isi kelardi.

**O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi**



Singlimning tug'ilgan kuni edi. Xursand qilish maqsadida uni o'zi yoqtirgan film namoyishiga olib bordim. Alisher Navoiy san'at saroyining muhtasham zaliga tomoshabinlar allaqachon yig'ilib bo'lgan. Biz ham bo'sh o'rinlardan biriga o'tirayotgandik, orqa tarafdin bir qiz e'tiroz bildirdi: – U yer band, boshqa joyga o'tiring!

Buyruq ohangidagi bu xitob nafsoniyatimga tegdi. Qolaversa, salgina avval shu yerga o'tirishga taraddudlanayotganimizda,

xuddi shu qizning "Obbo, bizni to'sib qo'yadi, boshqa joy qurib ketganmi!" degani qulog'imga chalingandi. Singlimdan ham kichik bo'lgan, bu qizning qo'polligi jig'imga tekkanini yashirmay, men ham javob qaytardim:

– Harqalay, bu joyni sotib olmagandirsiz?

– Sotib olgan bo'lsam-chi?

Ayni shu tobda gap-gapga ulanib, urush chiqishi tabiiy edi. Biroq o'zimni bosdim. Axir u mening tengqurim emas – hozir shunaqa yoshda, bitta gapdan qolish bir yerimni kamaytirarmidi...

Xullas, film ham boshlandi. Aslida ruhiyatga ta'sir qiladigan, o'ziga chorlovchi, ibratli joylari ko'p edi. Lekin boya men bilan tortishgan qizning ovozi boricha film qahramonlari bilan bab-barobar gapirishi, ora-chorada baralla kuy chalib jiringlayotgan qo'l telefonida andisha ko'chasidan ancha yiroq bo'lgan so'zlar bilan gaplashishi asabga tegmay qo'ymasdi. Bunisiga ham chidab o'tirdik. Bir mahal singlim ortiga o'girilib:

– Oyog'ingizni yig'ishtirib oling, – dedi.

– Nogironmaan, oyog'im cho'loq, yig'ishtirishning ilojisi yo'o'q!

Qiz shunday deya ovozining boricha hiringladi. Bilishimcha, u singlim o'tirgan o'rindiq suyanchig'iga oyog'ini tirab, uning sochidan tortgan. Yashirmayman, uning o'mida singlim bo'lganida shu bezbetligi uchun chakkasiga tarsaki tortib yuborgan bo'lardim...

Qiziq, qizini qo'l telefonidan tortib, tilla matoqlarigacha ta'minlab qo'ygan ota-ona nahot uni oddiygina – jamoat joyida o'zini tutish odobidan sal bo'lsin, boxabar qilmagan bo'lsa? Taassuflar bo'lsinki, bugun ko'cha-ko'y, avtobus, kinoteatr va shu kabi gavjum joylarda bunday qizlarni ko'plab uchratish mumkin. Shu taxlit qiliqlarga odatlangan qizlar ertaga birovning eshigiga borsa, pand yeb

YO'QOLIB BORAYOTGAN ANDISHA



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

qolmaydimi? O'z farzandlarining yaxshi yeb, birovdan kam bo'lmay kiyinishi haqida qayg'urayotgan ota-onalarni nega ularning tarbiyasi, yurish-turishi tashvishlantirmayapti?..

– Ko'ylakni "it"idan kiyib olibdimi, Feruz?

Mana sizga o'z tiliga bo'lgan "hurmat"ning namunasi! Mana sizga bir paytlar eng kassabop deb tan olingan "Ko'zlaring ma'yus" filmidagi birgina so'zning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatgan salbiy ta'siri. O'sha filmda qahramonlardan biri xuddi shu so'zni ishlatgan edi. Shu o'rinda bir misol. Mutaxassislar fikricha, bolaga tashqi muhitning ta'siri katta bo'lib, u hatto yorug' dunyoga kelmasidanoq onasi eshitgan musiqa, u o'qigan kitob yoki tomosha qilgan filmidan ta'sirlanar ekan. O'z-o'zidan bu bola tug'ilganidan, to'ulg'aygunicha atrofida yuz berayotgan voqealardan ijobiy va salbiy ma'noda saboq olishini esa ta'kidlab o'tirishga hojat bo'lmasa kerak...

Film ham nihoyasiga yetdi. Uyga qaytish uchun avtobusga chiqdik. Bir-ikki bekati yurganimizdan so'ng bir qizning ko'zlarida yosh bilan zorlangani hammaning diqqatini tortdi:

– Qizingiz tengiman-ku, uyalmaysizmi shunaqa qilishga?!

Nima gapligini anglab-anglamasimizdan qizning yonida turgan odamning g'udrangani eshitildi:

– Irillama! Ovozini o'chir!

Barcha lol-u hayron. Qiz esa "Xudoga soldim!" deya teskari burilib oldi. Shu payt bilmadim, qaysi gunohi uchun, haligi odam qiz sho'rlikka astoydil qo'l ko'tarib, uni old tomonga itarib, turtkilasa bo'ladimi?! To'g'risi, shu paytgacha ayol zotiga qo'l ko'targan erkakni ko'rgan emasman. Shuning uchunmi, o'zimni butkul yo'qotib qo'ydim. Qo'lidagi diplomat, bo'ynidagi bo'yinbog'-u, taqib olgan ko'zoynagidan nufuzli idorada ishlashi ko'rinib turgan bu odam insonga xos bo'lgan barcha fazilatlarini unutgandek edi, shu chog'. Uning tilidan ko'chayotgan kurakda turmaydigan so'zlar, yoshgina qizni astoydil do'pposlashidan hamma karaxt edi. Avtobusda yoshi katta odamlar

qancha ko'p bo'lmasin, ulardan biror kimsa haligi odamni hovuridan tushirishga harakat qilmasdi. Xayriyatki, ancha narida turgan yosh bir yigit tiqilinchda bir amallab yetib keldi-da, hayvon qiyofasiga kirgan boyagi odamning ikki qo'lidan mahkam ushlab, unga dedi:

– Aka, o'zingizni bosing, qiz bola-ku!

– Chiqqan joyiga kiritib qo'yaman, nega meni Xudoga soladi?!

Yashavor degani odam yo'q, gapini qarang! Avtobusdagi tiqilinchdan foydalanib, qizga hirs bilan teginayotganda nega Xudoni o'ylamadi, bu shovvoz?! Qiz sho'rlik ham alamidan gapirdi-da... Erkakning qilg'iliqliq qilib qo'yib, ayol kishiga qo'l ko'tarishini nima deb izohlash mumkin?..

Kinoteatrdagi dilxiralik hozirgisining oldida hayf ekan, dedim o'zimcha. Hali aqlini tanimagan yosh bir qizdan xafa bo'libman-u, naq qirq yoshni qoralab qo'ygan kap-katta odamlarning ham shunaqa "hunar"i borligini o'ylamabman. Axir bugun jamiyatga qo'shilayotgan necha-necha farzandni voyaga yetkazib, "ota" degan nom ostida yurgan odamlar shunday qilib tursa, yoshlarni odobsizlikda ayblash ko'pam to'g'rimikan? Ayolga qo'l ko'targanning ta'zirini berish o'rniqa loqaydlik ila tomoshabin bo'lib turganlar-chi? Aslida ular ham ota, nasihat qilsa, gapi o'tgudek yoshi ulug' insonlar-ku?! Shunday xunuk manzaraga guvoh bo'lgan yoshlarga kattalarning sovuqqon va befarqligi yaxshi ma'noda ibrat bo'la olmasligi aniq emasmi? Kuni kelib, oramizdagi mehr-oqibat, andisha va hurmat kabi ulug' fazilatlar yo'qqa chiqsa, oxir-oqibat kimga ziyon?

Bu ketishda millatimizga xos bo'lgan hotamtoylik, ibo, odamiylik xislatlari bardavom bo'ladi, deb kafolat berish mumkinmikan? Axir bizning yevropaliklardan ustun jihatimiz ham shu emasmi?

Shu kabi savollar qiynog'ida chuqur o'yga tolibman. E'tibor bersam, tug'ilgan kunida ta'bim xira bo'lganidan iztirobga tushgan singlim menga ming xijolat bilan boqib turgan ekan...

YO'NALTIRILGAN TADBIRLAR



Ayni kunlarda ham tashkilotda bu yo'nalishdagi faoliyat ko'lami yanada rivojlantirilib, bo'lajak haydovchilarning yetarli darajada bilim olishlari uchun ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Englovchilarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishlari uchun klubda kerakli shart-sharoitlar yaratilgan.



REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Hamkorlik



“Vatanparvar” tashkiloti orqali YEVROPAGA YO‘L

Ma'lumki, hamyurtlarimizni xorijiy davlatlarda qonuniy va xavfsiz, yuqori daromadli ish bilan ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Shuni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi “Poytaxt” o'quv sport-texnika klubida xorij mehnat bozorida ishlash istagida bo'lgan haydovchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan o'quv kursi o'z faoliyatini boshladi.

Ochilish marosimida tashrif buyurganlar “Vatanparvar” tashkiloti o'quv muassasasi va avtodromida haydovchilarni tayyorlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi. Shu bilan birgalikda 20 ga yaqin o'quv kursi qatnashchisi avtobus va pritsepli yuk mashinalarida dastlabki sinovlarni topshirdi.

Ushbu loyiha “Vatanparvar” tashkiloti hamda “Swift Road Transport Academy” va “The Kasb xususiy bandlik agentligi” mas'uliyati cheklangan jamiyatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumiga asoslanib yo'lga qo'yildi. Hamkorlar o'rtasida imzolangan hujjatga binoan, tashkil etiladigan bunday kurslarda AQSh hamda Yevropada yuk va yo'lovchi tashuvchi transport haydovchisi sifatida ishlash istagidagi o'zbekistonlik fuqarolar “KOD-95”, “ADR” va “Taxograf chip kartochkalari” bo'yicha o'qitiladi.

Bunday kurs ilk marotaba uch oy avval Navoiy viloyatida yo'lga qo'yilgan edi. Kelasi haftada esa Farg'ona viloyatida ochilishi belgilangan. Kelgusida bunday o'quv kurslari respublikamizning

qolgan hududlarida ham tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, “Swift Road Transport Academy” MCHJ tomonidan haydovchilar Yevropa ish muhitiga tez moslashishlari uchun rus va ingliz tillari bo'yicha maxsus o'quv moduli ham joriy etilgan. Mashg'ulotlar soha terminologiyasi va haydovchilik kontekstiga moslab tuzilgan. Kursni muvaffaqiyatli yakunlagan haydovchilar “The Kasb xususiy bandlik agentligi” MCHJ orqali xorijdagi ish beruvchi kompaniyalarga yo'naltiriladi.

Haydovchilarni “Yevropaga yo'naltirish dasturi” deb nomlangan mazkur loyiha 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. “Vatanparvar” tashkiloti haydovchilarni tayyorlash uchun o'quv-moddiy texnik bazasi va ishchi kuchini taqdim etadi.

2. “Swift Road Transport Academy” MCHJ Yevropa standartlariga mos bir oylik o'quv kurslarini tashkil qilib, haydovchilarga sertifikatlarini topshiradi.

3. “The Kasb xususiy bandlik agentligi” MCHJ har tomonlama tayyor bo'lgan

haydovchilarning hujjatlarini rasmiylashtirib, ish beruvchilar bilan bog'lanadi va ularni Yevropa mamlakatlariga ishga yo'naltiradi.

“Kod 95” – bu Yevropa Ittifoqida yuk mashinalari va avtobuslar haydovchilari sifatida ishlash istagida bo'lgan odamlar o'qib ega bo'lishi majburiy bo'lgan sertifikat. U haydovchilik kasbini to'liq o'zlashtirish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish, aholiga sifatli xizmat ko'rsatish kabi Yevropa Ittifoqining umumiy standartlarini belgilab beruvchi kasbiy malaka sertifikatini hisoblanadi. U og'irligi 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan va 9 nafardan ortiq yo'lovchi tashuvchi transport vositalari haydovchisiga qo'shimcha ravishda topshiriladigan hujjatdir. “Kod 95” sertifikatisiz Yevropa Ittifoqida yo'lovchi va yuk tashuvchi transport vositalarini boshqarish taqiqlanadi.

“ADR” – bu xavfli yuklarni xalqaro yo'llarda tashish to'g'risidagi Yevropa bitimi. Mazkur hujjatda agar halokatga uchrasa, inson sog'lig'i va hayotiga hamda atrof-muhitga

ziyon yetkazadigan yuklarni tashish bo'yicha talablar belgilangan.

“Taxograf chip kartochkalari” – bu Yevropa talabiga ko'ra, xalqaro avtomobil transporti yo'nalishlarida yo'lovchilar va yuklarni tashish bilan shug'ullanuvchi haydovchilarning mehnat va dam olish jarayonlarini raqamli boshqaruv moslamalari orqali nazorat qiluvchi vositalar.

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va AQShdan “Swift Road Transport Academy” hamda “The Kasb xususiy bandlik agentligi” MCHJda 2 000 haydovchilik ishchi o'rni uchun takliflar mavjud ekani diqqatga sazovor. Bundan ko'rinish turibdiki, hamkorlikdagi dastur asosida minglab hamyurtlarimizning qonuniy va xavfsiz, yuqori daromadli ish bilan ta'minlashi kafolatlanadi. “Swift Road Transport Academy” MCHJ rahbari Azizjon G'aybullayevning ta'kidlashicha, Navoiy viloyatida yo'lga qo'yilgan o'quv kursini muvaffaqiyatli tugatgan 19 nafar yurtdoshimiz Yevropa davlatlariga ishga jo'natilgan.

Asror RO'ZIBOYEV

Karting

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tomonidan sportning karting turi bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati va birinchiligining uchinchi (final) bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan hamda Rossiya va Qirg'iziston davlatlaridan qatnashgan 60 dan ziyod sportchi turli masofalarda “Mikro”, “Mini”, “Super mini”, “OK junior”, “KZ”, “KF-OK” va “Patriot” (T4) sinflarida sport kartlarida bellashdi.

Musobaqalar anchayin qizg'in va murosasiz kechdi. Joriy yilning may, iyun va avgust oylarida o'tkazilgan bahslarning natijalaridan kelib chiqib, g'olib sportchilar va jamoalar quyidagicha aniqlandi:

O'zbekiston birinchiligining final bosqichi:
“Mikro” sinfida:

1-o'rin: Kirill Konyuxov (Toshkent sh.);
2-o'rin: Kirill Shevtsov (Toshkent sh.);
3-o'rin: Azizmurod Muhammadjonov (Namangan v.).

“Mini” sinfida:

1-o'rin: Rustam Hamrayev (Toshkent sh.);
2-o'rin: Danil Usheka (Toshkent v.);
3-o'rin: Milana Kleyn (Namangan v.).

“Super mini” sinfida:

1-o'rin: Matvey Mochalkin (Sirdaryo v.);
2-o'rin: Anatoliy Korobkov (Toshkent v.);
3-o'rin: Yaroslav Xramchixin (Toshkent sh.).

Eng mohir sportchilar aniqlandi



Jamoa hisobida:

1-o'rin: Toshkent shahri;
2-o'rin: Namangan viloyati;
3-o'rin: Toshkent viloyati jamoalari.

O'zbekiston chempionati:

“OK junior” sinfida:

1-o'rin: Amir Hamrayev (Toshkent sh.);
2-o'rin: Arseniy Glova (Toshkent sh.);
3-o'rin: Artyom Usheka (Toshkent v.).

“KZ” sinfida:

1-o'rin: Ayder Haydarov (Toshkent v.);
2-o'rin: Farrux Muratov (Toshkent sh.);
3-o'rin: Sergey Bagdasarov (Sirdaryo v.).

“KF-OK” sinfida:

1-o'rin: Vladimir Usheka (Toshkent sh.);
2-o'rin: Kamoliddin Najmiddinov (Toshkent sh.);
3-o'rin: Ivan Barishev (Sirdaryo v.).

“Patriot” (T4) sinfida:

1-o'rin: Ivan Barishev (Sirdaryo v.);
2-o'rin: Adavie Krilova (Toshkent sh.);
3-o'rin: Sergey Alimov (Toshkent sh.).

Umumjamoa hisobida:

1-o'rin: Toshkent shahri;
2-o'rin: Toshkent viloyati;
3-o'rin: Buxoro viloyati jamoalari.

Musobaqalarning yopilish marosimida g'oliblik va yuqori natijalarni qo'lga kiritgan sportchilar “Vatanparvar” tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti**

Qahramonlar nomi barhayot

OQ KAPTARLAR



2000-yil 4-avgust kuni
Surxondaryo viloyati Sariosiyo
tumanining tog'li hududida
O'zbekistonga bostirib
kirishga uringan terrorist
jangarilarga qarshi o'tkazilgan
jangovar harakatlar payti
qahramonlarcha halok
bo'lgan katta leytenant
Alisher SALIMOVning porloq
xotirasiga bag'ishlayman.



Dilmurod DO'ST,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Yarador do'sti tomon o'tlanmish sher Alisher,
Pistirmadan o'q uchmish... yurak-bag'ir qon edi.

Yovga bo'yin egmadi yurtimning arslonlari,
U-da Alisher edi, sheryurak o'g'lon edi.

Bugungi imkon uchun, tinch va shod zamon uchun
Shahid ketgan ul mardlar haqiqiy posbon edi.

Qahramonlar o'lmaydi, sira unut bo'lmaydi,
Ular chin o'g'lon edi, yov o'tmas qo'rg'on edi.

* * *

"Edi... edi"lar bugun "endi"ga do'nayotir,
Alisherning izidan minglab sher kelayotir...

Ular ham yurt sha'nini or bilur, g'urur bilur,
Ular ham Vatan uchun jonini nisor qilur.

Alisher – zo'r qahramon, yovga tik boqib ketdi,
Yuraklarda hech o'chmas bir olov yoqib ketdi.

Osmonda oq kabutar – tinchlikning elchisi u,
Alisherning tuhfası, elsevar erkchisi u.

* * *

Alisher bolalikdan mard edi, polvon edi...
Endi qahramondir u...
U qahramondir endi!!!

Alisher yoshligidan mard edi, polvon edi,
Uning ikki bobosi, ikki qahramon edi.

Dushmanga tik qaragan, yurt koriga yaragan,
Urush ko'rgan bobolar dovrug'i doston edi.

Ulardan or, sha'n olgan va ko'z-u qosh rang olgan,
Alisherning qalbida yurt ishqı bo'ston edi.

Oq kabutar boqardi bolalikda Alisher,
Uning orzulari ham oq edi, osmon edi...

Tinch yurtning osmonida kaptarlar charx urardi,
Bog' edi yangiyerlar, atrof guliston edi.

...Nogahon quyosh yuzin qora bulut qoplamish,
Tuproqda yov izlari – dillar zimiston edi.

Elni qo'rmoq mard ishi, el degay chin er kishi,
Mardlar ichra Alisher yurtiga qalqon edi.

Har zarra tuproq uchun qonli jang kechdi bunda
Ul janggoh Uzun edi, bul janggoh Surxon edi.

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Sayyora Meliq'ziyeva

Buyurtma: V-6002
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 318 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya